

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI

QALANDAROVA IRODA HAMDAM QIZI

O'zbek adabiyoti kafedrasining

5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi) ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Naim Karimovning “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobidagi
maqolalarda adabiyotshunoslik masalalari talqini”

Ilmiy rahbar:



dots. M.Pirnazarova

Urganch – 2019

MUNDARIJA:

KIRISH	3
ASOSIY QISM	
I BOB. “ADABIYOT VA TARIXIY JARAYON” KITOBIDAKI TARIXIY HODISANI ADABIY QISMATGA AYLANISHIDA O‘ZIGA XOS MA’NAVIY QADAM	8
1.1 Naim Karimovning o‘zbek adabiyotshunosligida tutgan o‘rni.....	8
1.2 “Mumtoz adabiyotga bir nigoh” bobida olimning mumtoz adabiyotga munosabati	12
1.3 “Charog‘bonlar” bobida taraqqiyparvar insonlar faoliyatining yoritilishi.....	19
II BOB. “ADABIYOT VA TARIXIY JARAYON” KITOBIDA ULUG‘ INSONLAR TAQDIRIGA ADABIY-ILMIY MUNOSABAT	28
2.1. “Turfa taqdirlar”da XX asr boshidagi millat ma’rifatparvarlari taqdirlarining yoritilishi.....	28
2.2. “Musibat dostonlari” turkumining qatag‘on qurbonlari taqdirini o‘rganishdagi ahamiyati.....	40
2.3. “Zulmat qo‘ynidagi yulduzlar” bobining ijodkorlar taqdirini anglashdagi ahamiyati.....	48
XULOSA	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	65

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil mamlakatimizda hozirgi kunda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar jarayonida milliy ma'naviyatga e'tibor kuchayib, uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. U yangi jamiyat kishilarida ezgulik, olijanoblik, fidoiylik, umuman har tomonlama komillikka erishish tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Milliy tafakkurdagi tub yangilanishlar adabiy hodisalarni qayta idrok etish va uni ijtimoiy ongning bugungi darajasiga muvofiq adabiyotshunoslik ilmining talablari asosida baholash zaruratini taqozo etadi. Mustaqillikka erishilgandan keyingi davr o'zbek adabiyoti uchun inson ma'naviyati qirralarini tekshirish, uning ruhiy dunyosidagi ko'z ilg'amas sezgilarni tadqiq etishga erishish bugunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Zero, adabiyot inson kamolotiga, ezgulikka, yuksak ma'naviyatga eltuvchi ko'rikdir. Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar jarayonida milliy ma'naviyat jamiyatda har tomonlama komillikka erishish tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qilib, "adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor"¹ badiiy adabiyot va ma'naviyatning, ayniqsa, yosh avlod ma'naviy kamolotidagi benihoya ulkan o'rin tutishini yana bir karra tasdiqlaydi.

Inson ma'naviyatini yuksaltirishda adabiyot ilmi zimmasiga mas'uliyatli vazifa yuklatiladi. Zero, adabiyot ma'naviyatning ajralmas bo'lagidir. Shu ma'noda adabiyot ilmi zahmatkashlari ijodi va faoliyatini o'rganish alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda adabiyotshunoslik ilmini shakllantirgan, uni badiiy adabiyotning bir sohasidan o'zi xilma-xil sohalarga bo'lingan fanga aylantirgan alloma adabiyotshunoslar anchagina. Adabiyotimiz jonkuyari olim Naim Karimovni hech ikkilanmay mashhur tanqidchi – olimlar Izzat Sulton, Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Baxtiyor Nazarov, Umarali

¹ Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. –Тошкент, 2017. – 4 авг.

Normatov, Salohiddin Mamajonovlar qatoriga qo‘shgimiz keladi. Zero, Naim Karimov adabiyotshunoslikning qiyin sohasi bo‘lmish adabiy tanqidni tanladi. Shu ma’nodagi, adabiyotning uzviy qismi bo‘lgan adabiy tanqidni o‘rganish badiiy adabiyotni teranroq anglashga asos bo‘ladi. “Ijodiy jarayonning, adabiyotning asosiy bunyodkori – bu yozuvchi va shoirlardir. Adabiyotshunos tahlil orqali ularni saralaydi. Chinakam adabiyotshunos esa asarni to‘g‘ri baholaydi va kitobxonga kerakli xulosa beradi”.² Ijodkorlarning mashaqqatli mehnatini baholash o‘ta murakkab masala sanaladi. Haqiqatan ham, insonning hissiyotlari, uning ruhiy olamini tasvirlab beradigan, qanchadan-qancha buyuk zotlar ham ojiz qolgan bu hayotning azaliy va abadiy sadolarini aks ettiradigan ijod sohasida ma’lum me’yorlar mexanizimini ishlab chiqishning o‘zi qiyin. Bunday ijod mahsuliga baho berish esa undan ham mushkul. “Agar bu masalaning mohiyatiga to‘g‘ri yetib borilmasa, yalt etgan yosh iste’dodga munosib baho berilmasa, uni ijodiy ishdan sovutib, qobiliyatini so‘ndirib qo‘yish hech gap emas. Bu esa gavharning qadriga yetmasdan, xuddiki uni tuproqqa ko‘mib qo‘yish bilan barobar”.³ Shu boisdan ham, azaldan adabiyot sohasida “Adabiy tanqid”ning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Lekin shuni alohida ta’kidlash kerakki, adabiyotshunosligimizda aynan badiiy tanqid bilan shug‘ullanuvchi adabiyotshunoslarning faoliyati to‘la darajada o‘rganilmagan. Bu soha vakillari e’tiborsiz qoldirilgan, degan fikrdan yiroqmiz, albatta.

Naim Karimov Hamid Olimjon ijodi tadqiq qilingan nomzodlik, XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi. O‘ndan ortiq monografiya va risolalar yozdi. Jahon va qardosh xalqlar adabiyotining dolzarb masalalari va ularning o‘zbek adabiyoti bilan uyg‘unlik jihatlarini ilmiy jihatdan asoslab beruvchi bahstalab jiddiy maqolalar yozdi va ular o‘z vaqtida mutaxassislar tomonidan iliq qarshilandi. O‘nlab maqolalari ko‘plab xorijiy mamlakatlardagi majmualarda,

²Каримов И. А. Адабиётга эътибор- маънавиятга, келажакка эътибор. –Тошкент: Ўзбекистон, 2009.–Б. 31.

³Кўрсатилган манба.–Б. 22.

jurnallarda, xalqaro anjuman tezislarida chop etildi. Bu jiddiy hodisa bo‘lib, salohiyatli olim nomini el-yurt nazaridan ko‘tarib, jahonning yetakchi ilmiy markazlari ahliga tanitdi, zabardast tanqidchi nomini egalladi. Tabiiyki, olimning ilmiy ijodi badiiy asarning mazmun-mohiyati teran tahlil qilingan, uzoq yillar o‘quvchilar ommasiga va adabiyotshunoslarga manfaat keltiradigan asarlardan tashkil topgan. Shu jumladan olimning “Adabiyot va tarixiy jarayon” nomli adabiy-tanqidiy maqolalardan tashkil topgan kitobiga kiritilgan maqolalar tarix qatlarida yotgan adabiy hodisalar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Adabiyotshunos olimning “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobidagi adabiy-tanqidiy qarashlarini ochib berish, imkon doirasida olim faoliyatining asosiy jihatlarini ko‘rsatish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Naim Karimovning adabiy-tanqidiy faoliyati doimo adabiy jamoaning diqqat e’tiborida bo‘lgan. Jumladan, Ozod Sharafiddinov, Baxtiyor Nazarov, O.Safarov, Solohiddin Mamajonov, B.Yo‘ldoshev, Shoirah Ahmedova⁴ va boshqalarning tadqiqot va maqolalarida Naim Karimov ilmiy-tanqidiy qarashlarining g‘oyaviy – badiiy qimmatini to‘g‘risida ayrim fikr va mulohazalar bildirilgan. Hamidulla Boltaboyev olimning “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobi haqida quyidagi iliq fikrlarni bildirgan: “Naim Karimovning ushbu kitobdagi ayrim maqolalarini o‘qiganda ularning mavzusi yoniga ushbu so‘zlarni qo‘shib qo‘yishni ravo ko‘ramiz, ya’ni millat o‘z qahramonlarini unutmaydi”⁵

Baxtiyor Nazarov olimning ilmiy qarashlarini tahlil qilar ekan, quyidagicha fikrlarni bildiradi: “Naim Karimov izlanuvchan va yuksak ilmiy-estetik did hamda qarashlarga ega munaqqid. U o‘zining Cho‘lpon, Hamza, Oybek, Hamid Olimjon,

⁴Nazarov B. va boshqalar. Ўзбек адабий танқиди тарихи.–Т., “Тафаккур қаноти”. 2012 . Мамажонов С. Теранлик. Адабиёт ва санъат. 1987. Сафаров О., Йўлдошев Б., Аҳмедова Ш. Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи. Бухоро. 2003.

⁵Болтабоев Х. “Тарих ҳодисаси адабий қисматга айланганда” “Адабиёт ва тарихий жараён”. Тошкент, “MUMTOZ SO‘Z”, 2013. 435-бет.

Usmon Nosir, Shayxzoda ijodiga doir tadqiqotlarida asarlarini o‘rganish bilan cheklanmay, ularning ijodiy laboratoriyasiga chuqur kirib boradi”⁶

Yuqorida qayd qilib o‘tilgan maqola va tadqiqodlar Naim Karimov badiiy mahorati, adabiy-tanqidiy qarashlarining o‘ziga xosligini yoritishda muayyan ilmiy ahamiyatga ega. Ammo bu tadqiqotlarda olimning ayrim ishlarigina tahlilga tortilgan va shuningdek “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobi yetarlicha tadqiq etilmagan. Bizning bitiruv malakaviy ishimizda esa olimning “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobi mahsuli bo‘lgan maqolalar tahlilga tortilib, ularning asosiy mohiyatiga diqqat qaratildiki, bu tadqiqotimizning yangiligini belgilaydi, deb o‘ylaymiz.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

Sermahsul olim Naim Karimovning “Adabiyot va tarixiy jarayon” nomli adabiy-tanqidiy maqolalardan tashkil topgan kitobiga kiritilgan maqolalarning adabiyotshunoslik rivojidadagi o‘rni bugungi kungacha monografik tarzda o‘rganilmay, balki kichik tadqiqotlar holida e‘lon qilinmoqda. Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizda olimning “Adabiyot va tarixiy jarayon” nomli adabiy-tanqidiy maqolalardan tashkil topgan kitobiga kiritilgan ma‘lumotlarni yoritishni maqsad qilib oldik.

Biz qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarni amalga oshirishga harakat qildik:

- Naim Karimovning “Adabiyot va tarixiy jarayon” nomli adabiy-tanqidiy maqolalardan tashkil topgan kitobining o‘zbek adabiyotshunosligi sohasiga qo‘shgan hissasini ochib berish;

- Mazkur kitobda olimning mumtoz adabiyot tadqiqotchisi sifatidagi xizmatlarini ko‘rsatish;

- Kitobning “Charog‘bonlar” bobida keltirilgan maqolalardan kelib chiqib olimning adabiy portret janri rivojidadagi o‘rnini ko‘rsatish

-Jahon adabiyotining ham tadqiqotchisi ekanligini ko‘rsatish;

⁶Назаров Б.Нозиктаъб адабиётшунос .// ЎТА, 2002, №6, 3-9- бетлар.

- “Turfa taqdirlar” bobining mazmun-mundarijasini yoritib berish;

- “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobidagi “Zulmat qo‘ynidagi yulduzlar”, “Musibat dostonlari”, “Charog‘bonlar” boblariga kiritilgan maqolalardan Naim Karimovning millatning jonkuyar olimi ekanligini ochib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tabiiyki, Naim Karimovning ilmiy qarashlarida u yashagan davr mafkurasining muayyan ta’siri seziladi. Lekin bu hol uning tadqiqotlari mohiyatini yo‘qqa chiqara olmaydi. Olim adabiyotimizning yirik tadqiqotchisi, shu bilan birga ustoz muallim va fan tashkilotchisi sifatida e’zozga munosibdir. Olimning “Adabiyot va tarixiy jarayon” asarini bugungi kun nuqtai nazaridan alohida olib o‘rganilishi bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va usullari. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov va Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlarga munosabat va ilm–fan taraqqiyoti bilan bog‘liq qarashlari ishning metodologik asosini tashkil qiladi. Masalani yoritishda hozirgi kunda o‘zbek adabiyotshunosligi qo‘lga kiritgan yutuqlardan, xususan, Baxtiyor Nazarov, Naim Karimov, Umarali Normatov, Sanjar Sodiq, To‘ra Mirzaevlarning ilmiy ishlarida bayon qilingan fikrlardan ijodiy foydalanildi.

Ishning tuzilishi va umumiy hajmi. Ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi sahifani tashkil qiladi.

I BOB. “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobi tarixiy hodisani adabiy qismatga aylanishida o‘ziga xos ma’naviy qadam

1.1. Yetuk adabiyotshunos va tanqidchi

Hayot va ijod yo‘li butun bir soha haqida yoxud sohaning katta bir davri haqida atroflicha tasavvur beradigan mutaxassislar ko‘pchilikni tashkil etmaydi. Chunki bunday martabaga kimningdir xohish-istagi bilan yoki maxsus sa’y-harakati yordamida erishib bo‘lmaydi, balki u – insonga taqdirning ajib bir inoyati sifatida nasib etadi. XX asr o‘zbek adabiyotining bir qator ulkan darg‘alarini nomma-nom sanashimiz, ular faoliyatining ko‘lami, miqyosi, qamrovidan hayratlarga tushishimiz mumkin. Lekin Naim Karimov ilmiy ijodi va ma’rifiy faoliyati bu sohadagi deyarli barcha darg‘alar ijodiy faoliyatidan tubdan farqlanadi. Bular: o‘tgan asr o‘zbek adabiy voqeligining ko‘plab yo‘nalishlarini qamrab olganligi bilan; ko‘plab atoqli figuralar ijodini maxsus tadqiq etgani bilan; juda ko‘plab noaniqliklarga, bahsli munozarali holatlarga oydinlik kiritgani bilan; bir asrlik milliy adabiyotimizni yaxlit va fundamental tarzda yaratishga urinishlari bilan; mukammal asarlar nashri borasidagi mehnatlari bilan, ko‘plab yosh ilmiy kadrlarga rahbarlik qilganlari bilan; mustaqillik davri ijtimoiy va adabiy hayotidagi faolligi bilan va hokazo. Bunday ro‘yxatnamo sanoqlar bilan atoqli adabiyotshunos olim, munaqqid, benazir adib, publitsist Naim Karimov fenomenini to‘la-to‘kis tasvirlay olmasligimiz muqarrar. Axir vaqtli matbuotda birinchi maqolasi bundan salkam 60 yil muqaddam chop etilgan, salkam 60 yil burun oliy o‘quv yurtini tugallagan, 50 yil muqaddam nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib hamda dastlabki risolasini chiqarib shu bugungi kunga qadar biron fursat tinim bilmagan olim faoliyatini bir necha jumlada qamrab olishning imkoni yo‘q.

Bu olimni boshqa barcha salaflaridan ajralib turgan, uning mutlaqo o‘ziga xosligini ta’minlagan bosh xususiyat bir asrdan ziyod davr mobaynida o‘zbek adabiyoti voqeligida kechgan asl jarayonlardan boxabarlik. Birlamchi hujjatlarni o‘z qo‘li bilan ushlab, o‘z ko‘zi bilan sinchiklab ko‘rish, ma’lumotlar, fakt va raqamlarni qiyosiy o‘rganish, tahlil qilish uchun olimga avvalambor katta ilmiy salohiyat kerak bo‘ladi.

Hech ikkilanmay aytish mumkinki, Naim Karimovni Cho‘lpon, Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Usmon Nosir haqida kitob yozishga, boshqa ko‘plab ijod ahliga taalluqli mavzularda maqolalar bitishga undagan botiniy kuch-quvvat ham shulardir.

Adabiyotshunos olim Izzat Sultonning Naim Karimov haqidagi quyidagi gapi keltirilgan: “Men adabiyotshunosligimizda butun bir asr adabiyotimizning manzarasini to‘la tasavvur etib, uning har bir davri, har bir hodisasi haqida malakali ilmiy fikr ayta oladigan mutaxassis yetishganidan faxrlanaman. U bilan nafaqat, men, ayni chog‘da butun adabiyot ilmimiz g‘ururlansa arziydi”.⁷

Bundan qariyb 20 yil burun aytilgan ushbu ta’rif Naim Karimovning ayni kunga qadar davom etib kelayotgan—bir umrlik jo‘shqin faoliyatini qamrab oladi. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti, madaniyati va san’ati keyin bir asr mobaynida nihoyatda murakkab va g‘oyatda turfa voqealarga boy jarayonlarni boshdan kechirdi. Hayot va ijod yo‘li sohaning mana shunday katta bir davri haqida atroficha tasavvur beradigan mutaxassis ijodi to‘g‘risidagi so‘z o‘sha murakkab va o‘sha turfa voqealar, hodisalar va jarayonlar haqidagi so‘zga aylanib ketaveradi. Faqat bunday martaba har kimga emas, alohida kishilarga —akademik Naim Karimov singari zahmatkash va halol olimlarga taqdirning noyob bir inoyati sifatida nasib etgan.

⁷Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

Naim Karimovni bugun butun O‘zbekiston biladi. Uni shoir va yozuvchilar, san’atkorlar qadrlashadi. O‘qituvchilar bu olim ishtirokida yozilgan darsliklarni o‘qib, adabiyot olamiga kiradilar. Talabalar esa, undan adabiyot ilmining sir-asrorlarini o‘rganadilar, adabiyotimiz darg‘alarining hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishadilar. Adabiyot ilmiga kirib kelayotgan yosh mutaxassislarning ko‘pi esa u kishini “ustoz” deya hurmat bilan tilga oladi.

Naim Karimov halol, tinim bilmas, zahmatkash adabiyotchi sifatida alohida-alohida yozuvchi va shoirlar hayoti va ijodini tadqiq etish bilangina chegaralanmadi. Uning ijodida adabiyotshunoslik va adabiy tanqidga oid: zamonaviy o‘zbek she’riyati, davr va adabiyot munosabatlari, mustamlakachilik davri adabiy merosini o‘rganish, XX asr o‘zbek adabiyoti va milliy istiqlol mafkurasi muammosi, jahon va qardosh xalqlar adabiyotini o‘rganish, o‘zbek adabiyoti bo‘yicha darsliklar yaratish sohasidagi turli-tuman ishlar salmoqli o‘rin egallaydi. Olimning bu mavzudagi ishlarini tahlil etish asnosida esa, XX asr o‘zbek adabiyotining taraqqiyot tamoyillarini belgilay olgan san’atkorlar hayoti va ijodidagi o‘ziga xoslikni o‘rganish adabiyotshunos Naim Karimov ijodining xususiyati, degan xulosaga kelamiz. Adabiyotshunos olimning “Adabiyot va tarixiy jarayon”⁸ kitobiga kiritilgan maqolalarda adabiyot tarixiy jarayonni o‘zida aks ettirganini ko‘rsatar ekan, tarix haqiqatiga adabiy asar prizmasidan qaraydi. Kitobning “Mumtoz adabiyotga bir nigoh”, “Charog‘bonlar”, “Tarixiy lavhalar”, “Turfa taqdirlar”, “Musibat dostoni” va “Zulmat qo‘ynidagi yulduzlar” kabi boblariga kiritilgan maqolalar orqali mustaqillik yillarida ulg‘ayib borayotgan yangi avlodning XX asr birinchi yarmidagi tarixiy jarayon bilan yaqindan tanishishlariga imkon beradi. Shuningdek, o‘zbek adabiyoti namoyandalarining shu murakkab jarayonda “O‘tgan kunlar”, “Kecha va kunduz”, “Qutlug‘ qon”, “Navoiy” singari romanlar, badiiy ijodning boshqa turlarida yuksak asarlar yarata olganlari tufayli ular qalbida g‘urur va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otgan. Shu bilan birga, chor mustamlaka yillarida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla

⁸ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013.

Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon, Elbek, Tavallo, G‘ulom Zafariy singari, keyinchalik esa G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Shayxzoda, Mirtemir, Usmon Nosir singari katta iste’dod sohiblari maydonga kelgani va ular agar imkon berilsa uzoq yashab, nafaqat o‘zbek adabiyotini, balki jahon adabiyoti xazinasini ham yanada boyitishi mumkinligi haqida kuyunib yozgan.

“Mumtoz adabiyotga bir nigoh” bobidagi “Alisher Navoiy va Ahmad posho” maqolasida o‘zbek adabiyoti va uning mumtoz namoyandalari ijodi faqat Markaziy Osiyo emas, balki Sharq va G‘arb mamlakatlarida ham katta e’tibor qozonib kelganligi haqida gap boradi. Olmon adabiyotshunosi Zigrid Klaynmihel olimga o‘zining yangi ilmiy ishlaridan birini tuhfa qilganligini, bu tadqiqot “Alisher Navoiy va Ahmad posho” deb nomlanganligini va nashr qilinganligi haqidagi ma’lumotni keltirgan. Ushbu maqolada Alisher Navoiy va Ahmad posho o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik to‘g‘risida fikr yuritiladi. Taniqli nemis sharqshunos olimi Zigrid Klaynmihelning Germaniya kutubxonalarida mavjud bo‘lgan qo‘lyozmalardan foydalanganligi alohida ta’kidlangan. Shuningdek ushbu bobda “Hindiston, Homer va Beruniy”, “Bobokalon shoirlar”, “Yorkent asiri”, “Shoshiylar avlodi” kabi maqolalar keltirilganki, ularda olimning olis tarix qatida yotgan adabiy haqiqatlarini yuzaga chiqarganlar.

Olim Hamidulla Boltaboyevning yozishicha, maqolalarda tarixchilar nigohi tushmagan, ikkinchi darajali fakt hisoblangan hodisalar birinchi planga chiqqan⁹. Naim Karimov ularga urg‘u bergan, hatto qayta ishlagan. Shuningdek bu ijodiy jarayonda adabiyotchi uchun muhimi voqea yoki fakt emas, balki inson va uning tarixiy evrilishlar davrida o‘zgarayotgan qiyofasi ekanligini ochib bergan.

“Charog‘bonlar” bobida “Turkiy dunyo yulduzi”, “Atoqli pedagog”, “Buyuk ozarbayjon dramaturgi”, “Milliy matbuotimiz Otabegi” kabi maqolalar kiritilgan bo‘lib, ushbu maqolalarda o‘zbek millatining ma’rifatli bo‘lishida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan insonlar haqida bizga ma’lum bo‘lmagan ko‘pgina ma’lumotlar berilgan. Insoniyat tarixida shunday siymolar borki, ular madaniyat va

⁹ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён. –Т., “Мумтоз сўз”. 2013. 436-бет

ma'rifat sohasidagi ulkan xizmatlari bilan nafaqat o'zlari millatning, balki qardosh millatlarning ham taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishiga munosib hissa qo'shganlar. Naim Karimovning "Turkiy dunyo yulduzi" maqolasida ana shunday siymolardan biri bo'lgan Ismoil Gaspirinskiy haqida yozilgan bo'lib, maqolada Gaspirinskiyning faoliyati davomidagi ma'rifatparvarlik g'oyalari M.Behbudiy, A. Qodiriy, Hamza, Fitrat va Cho'lpon singari o'zbek jadidlarning asarlari orqali butun Turkiston bo'ylab yoyilgani ko'rsatib berilgan. Shuningdek mazkur bobda Saidrasul Aziziy, Salohiddin Majidov, Munavvar qori Abdurashidxonov, Husayn Jovid va boshqa ma'rifatparvarlar haqida qimmatli ma'lumotlarni o'qishimiz mumkin.

Umuman olganda "Adabiyot va tarixiy jarayon" kitobi nafaqat tarixiy xronologiya nuqtai nazardan, balki ulug' o'tmishdoshlarimiz qismatiga adabiy-tarixiy nuqtai nazardan, adabiy-ilmiy munosabat nuqtai nazaridan ham qimmatlidir.

Naim Karimovning kitobida "Adabiyot va tarixiy jarayon" muammosini XX asrning birinchi yarmidagi o'zbek xalqi tarixi va adabiyoti materiallari asosida yoritishga harakat qilgan. Mazkur kitobdan o'rin olgan adabiy-tanqidiy maqolalar, ba'zi bir istisnolarni e'tiborga olmaganida, turli yillarda to'plam, gazeta va jurnallarda nashr etilgan. Muallif bu maqolalarni ushbu nashrga tayyorlash jarayonida ulardagi ayrim eskirgan o'rinlarni qisqartirdi, muharrirlarning xohish-istagi bilan o'zgartirilgan ba'zi maqolalar sarlavhalarining asl nusxasini tiklagan. Ushbu to'plam mustaqillik yillarida ulg'ayib borayotgan yangi avlodning XX asr birinchi yarmidagi tarixiy jarayon bilan yaqindan tanishishlariga imkon beradi va o'zbek adabiyoti namoyandalarining shu murakkab jarayonda "O'tkan kunlar", "Kecha va kunduz", "Qutlug' qon", "Navoiy" singari romanlar, shuningdek, badiiy ijodning boshqa turlarida yuksak asarlar yarata olganlari tufayli ular qalbida g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otadi.

1.2. "Mumtoz adabiyotga bir nigoh" bobida olimning mumtoz

adabiyotga munosabati

Kishilik jamiyati rivojlanishi bilan davlat ham shakllanib, turli tarixiy-ijtimoiy omillar ta'sirida va shu omillarning taqozosi bilan rivojlanib, kamol topa bordi. Ammo davlat faqat insoniyat ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tafakkurining mevasi emas, balki muayyan siyosiy kuchning erk va irodasi bilan harakatga keluvchi mashina hamdir. Agar kishilik jamiyati tarixiga nazar tashlasak, aksar davlat to'ntarishlari tarixiy zarurat taqozosi bilan emas, balki bir to'da zo'ravonlarning xatti-harakati bilan ro'y berganini ko'ramiz. Qaysi xalqning og'zaki ijodiga nazar tashlamang, shu xalqning odil podshoh haqidagi orzulari kuylanganini ko'rasiz. Demak, jahon xalqlari shunday davrlar kelishini orzu qilganlarki, bu davrda mamlakatda tenglik, adolat va haqiqat qaror topgan bo'lsin; davlat xalq haqida qayg'ursin, uning hur va erkin yashashi, farovon turmush kechirishiga imkoniyat yaratsin.

“Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobining “Mumtoz adabiyotga bir nigoh” bobida olimning mumtoz adabiyotga bo'lgan o'ziga xos munosabatini ko'rishimiz mumkin. Adabiyot tarixiy jarayonni o'zida aks etar ekan, har ikki holda ham tarix haqiqatiga adabiy asar prizmasidan qaraydi, unda tarixchilar nigohi tushmagan yoki ikkinchi darajali fakt hisoblangan hodisalar birinchi planga chiqishi, unga urg'u berilishi, hatto qayta ishlanishi ham mumkin. Bu ijodiy jarayonda adabiyotchi uchun muhimi vokea yoki fakt emas, balki Inson va uning tarixiy evrilishlar davrida o'zgarayotgan qiyofasidir. Bu jihat badiiy adabiyot uchun muhim sanalgani kabi adabiyotshunos olim ham adabiy asarga tortilgan mana shu jihatlarga e'tibor qaratadi, tarix bag'ridan vokea emas, shaxs qidiradi.

Garchi Naim Karimov yaqin davrlar adabiy tarix tadqiqotchisi sifatida tanilgan bo'lsa ham olimning olis tarix qatida yotgan adabiy haqiqatlarni yuzaga chiqarish maqsadida amalga oshirgan ixcham tadqiqotlari alohida e'tiborli. Nafaqat tarixiy silsila, xronologiya nuqtai nazaridan, balki ulug' o'tmishdoshlarimiz qismatiga adabiy-ilmiy munosabat nuqai nazaridan ham ayni holat muhimdir. Ulug' alloma Beruniyning badiiyat olamiga munosabati, bizga noma'lum adabiy manbalarni

ma'lum qilishdagi dalolati Naim Karimovga qadar ham olimlarimizni qiziqtirib kelgan. Akademik A.Qayumovning "Beruniy va adabiyot" asarida masalaning umumiy jihatlariga e'tibor qaratgan, yirik asarlarini nomma-nom keltirib, ularning adabiyot bilan bog'liq jihatlarini aniqlagan, Ulug' allomaning arab, hind va yunon adabiyotiga munosabatini tadqiq qilgan¹. Olim N.Komilov maqolasida bevosita Beruniy va badiiy ijod sohasi xususida so'z yuritilgan, shunday qomusiy dahoning badiiy ijodi namunalari ham bo'lishi mumkin, degan niyat bilan Beruniy merosini o'rgangan. Beruniyni yunon adabiyotining bilimdoni sifatida tanitish orqali Naim Karimov "buyuk vatandoshimizning ilmiy merosini qiyosiy metod asosida o'rganish, uning Arastu, Aflotun, Homer singari buyuklar bilan bir safda turishini asoslashni o'zining vazifasi deb bilgan. Ushbu maqola bir jihatdan, Naim Karimovning yunon va boshqa qadimgi adabiyotlarni yaxshi bilishini anglatsa, ikkinchi jihatdan, Ulug' alloma merosiga yuksak madaniyat va ilmiy vorislik nuqtai nazaridan yondoshganining amaliy isbotidir.

"Hindiston, Homer va Beruniy" maqolasida buyuk siymolar aql bovar qilmaydigan darajada bilimdon va o'ta yuksak madaniyatli bo'lganlari uchun ham insoniyat ular bilan haqli ravishda faxrlanib kelganligi ilmiy asoslab berilgan.

Xorazm Ma'mun akademiyasi namoyandalarining asarlari ro'yxatiga nazar tashlasak, ularning turli sohalarda ilmiy izlanishlar olib borib, tom ma'noda qomusiy bilim sohiblari bo'lganidan hayratga tushamiz. Ular ilm-fanning o'sha davrda Sharqda kashf etilgan barcha sohalarida chuqur iz qoldiribgina qolmay, ayni paytda G'arbning ilmiy va badiiy tafakkuridan ham baxramand bo'lganlar.

Maqolada keltirilishicha, hind xalqining ulug' farzandlaridan biri Javaxarlal Neru qamoqxonadan qizi Indiraga 1932 yil 24 iyun kuni yo'llagan maktubida buyuk vatandoshimiz to'g'risida bunday ajoyib so'zlarni yozgan edi: «Men senga sulton Maxmud G'aznaviy to'g'risida hikoya qilgan va Mahmudning iltimosi bilan fors tilida «Shohnoma» yozgan shoir Firdavsiy to'g'risida nimalarnidir aytgan edim. Ammo men senga Mahmud zamonasida yashagan va u bilan birga Panjobga

kelgan boshqa bir ulug'vor inson to'g'risida hech narsa demaganman. Bu o'sha davrdagi shafqatsiz va fanatik jangarilardan keskin farq qilgan ma'lumotli inson va olim Beruniydir. U butun Hindiston bo'ylab sayohat qilib, yangi mamlakat va uning xalqini tushunishga intilgan. U hindlarning qarashlari bilan tanishishni shunday xohlaganki, hatto sanskritni o'rganib, hindlarning asosiy kitoblarini o'qib chiqqan. U hind falsafasi, shuningdek, fani va san'ati Hindistonda qanday o'qitilgan bo'lsa, ularni shunday o'rgangan. «Bxagavadgita» uning tom ma'noda sevimli kitobi bo'lgan. U janubdagi Chollar saltanatiga borganida, u yerdagi katta sug'orish inshootlarini ko'rib, hayratga tushgan. Uning Hindiston bo'ylab qilgan safarlari yilnomasi sayoxatlarning bizgacha yetib kelgan buyuk qadimiy kitoblaridan biridir. Vayronalar, qon to'kishlar va noahilliklar avj olgan bir zamonda u haqiqatni sabr-toqat bilan kuzatuvchi, o'rganuvchi va tushunishga intiluvchi olim sifatida gavdalanadi» Chindan ham, Beruniyning «Hindiston» asarida jahondagi eng qadimiy xalqlardan birining tarixi va madaniyatini, hind olimlarining ta'limotlarini chuqur o'rganib, shu xalq ruhini va u xalqdagi haqiqatni tushunishga, uning jahon tamadduniga qo'shgan va qo'shib kelayotgan xissasini yaqqol ko'rsatishga erishdi. U sanskritni shunday mukammal egallagan ediki, xatto shu tilda yozilgan «Panchatantra»ning VIII asrda Abdullox, ibn Mukaffa tomonidan paxlaviychadan arab tiliga qilingan tarjimasidan mutlaqo qanoatlanmay, uni imkon topganida aslyatdan qayta tarjima qilmoqchi bo'lgan. Olim «Panchatantra» ning mazkur arabcha nusxasi munosabati bilan aslyatdan chekinmaslik, unga begona matnni qo'shmaslik tarjima san'atining asosiy sharti ekanini bundan ming yil muqaddam ilmiy asoslab bergan. Afsuski, Beruniyning adabiy asarlari bizgacha yetib kelmagan. Uning «Panchatantra» ni arab tiliga qayta tarjima qilgan yo qilmagani ham ma'lum emas. Ammo shu narsa aniqki, u adabiyot va san'at nazariyasini yaxshi bilgan. Uning estetik qarashlari, mutaxassislarning fikrlariga qaraganda, Arastu va Aflotun singari yunon faylasuflarining asarlaridan ma'lum darajada oziqlangan. San'at va adabiyotning paydo bo'lishini Beruniy, yunon olimlari singari, insoniyat

jamiyatining iqtisodiy muammolaridan sekin-asta yuqori ko'tarilib, tabiatdagi go'zallikni ilg'ay boshlash jarayoni bilan uzviy bog'lagan. Ana shu tarzda badiiy didning paydo bo'lishi bilan jamiyatda san'atga bo'lgan ehtiyoj kuchayib borganki, natijada san'at va adabiyot kishilarga shodlik bag'ishlovchi, ular ruhini ko'taruvchi vositaga aylanib borgan. Agar Beruniyning qator asarlarida san'at va adabiyotning umumiy masalalariga oid fikrlari bayon qilingan bo'lsa, biz olimning «Hindiston» asariga «Hindlarning grammatika va nazm to'g'risidagi kitoblari» degan maxsus bobning ham kiritilganini ko'ramizki, bu uning hind tili va adabiyotiga ayricha mehr qo'yganidan shahodat beradi. Beruniyning aytishicha, hind olimlarining grammatika va nazm (she'riyat)ga oid asarlari ko'p bo'libgina qolmay, ularning aksar ilmiy asarlari nazm bilan, aniqrog'i, shloka deb atalmish qadimgi she'riy vaznda yozilgan. Beruniy shlokaning vazn xususiyatlarini mukammal tekshirib, uni aruz bilan qiyoslashga, unda ham harf, tovush va bo'g'in singari fonetik hamda turoq va baxr singari lingvo-poetik unsurlarning muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatishga alohida e'tibor bergan. Shu bilan birga, uning kuzatishiga ko'ra, shlokada, aruzdan farqli o'laroq ikki-uch undosh tovushlar yonma-yon kelishi mumkin. Shlokada ko'p tarqalgan o'lchovlar to'rtta bo'lib, ularning guruhlanishidan turoq va baxrlar hosil bo'ladi. Aruzdagi singari shlokada ham baytlar bo'lib, ular ikki qismga ajraladi va har bir qism *oyoq* deb ataladi. Beruniy *oyoq* tushunchasi to'g'risida tasavvur uyg'otish niyatida uni yunon she'riy vazni bilan qiyoslab, bunday yozadi: «Yunonlar ham baytlarni oyoqlar, deb ataydilar. So'zlardan tarkib topgan oyoqlar sillabiy bo'ladiki, bunda undoshlar unli bilan yoki unlisiz keladi».

Naim Karimovning ta'kidlashicha, Beruniyning qadimgi hind she'r tuzilishi to'g'risidagi fikrlariga to'xtalishidan maqsad uning yunon she'riyatini yaxshi bilgani, shu she'riyat namunalaridan xabardor bo'libgina qolmay, uning nazariy masalalari bilan ham faol qiziqqaniga e'tibor qaratishdir.

Maqolada berilishicha, Beruniyning ilmiy merosidan yaxshi xabardor bo'lgan, shu merosni tashkil etgan asarlarda «Iliada» dagi ayrim motivlar bilan mushtarak

parchalarni koʻrgan rus va Yevropa olimlari uzoq yillar mobaynida Beruniyning Homer asarini oʻqiganligi masalasida bahslashib kelganlar. Bulardan tashqari “Hindiston, Homer va Beruniy” maqolasida 1941-yil qishida, Leningraddagi qamal paytida, ochlik va xastalikdan vafot etgan sharqshunos SA.Jebelev 1915-yilda rus olimlari orasida birinchi boʻlib shu masalaga eʼtibor qaratilganligi va bundan ancha avval XIII asrda Vena sharqshunoslik maktabi namoyandasi Genrix Homer asarlaridan hatto biror kattaroq lavhaning ham oʻsha vaqtgacha arab tiliga tarjima qilinmaganini qayd etgan. Lekin XIX asrning oʻrtalarida XII asrda yashagan ash-Shaxristoniyning din tarixiga oid asarida Homer dostonlaridan olingan 38 ta hikmatli soʻzning berilganligi maʼlum boʻlgan. Biroq keyinchalik aniqlanishicha, bu hikmatli soʻzlar Homer ijodiga mansub boʻlmay, ularning aksar qismi Menandrning sheʼriy mahsuloti ekan. Shunga qaramay, XIX asrda «Ming bir kecha» dagi «Sindbod sayohatlari» bilan «Odissey» dagi ayrim boblarning qiyosiy oʻrganilishi Homerning arab tiliga tarjima qilingan yo qilinmaganligi masalasiga yana dolzarblik bagʻishladi. Bu masalaning yechimi esa atoqli rus sharqshunosi I.Yu.Krachkovskiyni ancha vaqtdan beri qiziqtirib kelgan “uch koʻchirma” masalasiga oydinlik kiritishi mumkin edi. Olimning aytishicha, «Hindiston» asarida keltirilgan bu uch koʻchirmaning ikkitasi Homerning «Iliada», uchinchi esa «Odissey» sidan olingan. U «manba, ayniqsa, ravshan va hech qanday shubha uygʻotmaydi»gan soʻnggi koʻchirma toʻgʻrisida bunday deydi: «al-Beruniy hindlarda ruhiy mavjudotlar maskani boʻlmish yetti samoviy iqlimning mavjudligi haqida bunday yozadi: «Yunonlar ham osmonni ana shu tarzda yigʻinlar joyiga aylantirganlar. Ioann Grammatik Prokl¹⁰ ning fikrini rad etadi. Misrning qadimiy poytaxti Fiva toʻgʻrisida yozar ekan, Homer uni oʻz dostonida tilga olganini aytib oʻtgan». Shubhasiz, sanskrit, yahudiy, suryoniy kabi koʻplab tirik va oʻlik tillardagi asarlarni bemalol oʻqiy olgan Beruniyning yunon tilini ham bilgani, balki, biz oʻylagandek, olamshumul voqea emasdir. Ammo bu fakt qomusiy olimning antik davr tarixi, falsafasi, adabiyoti va sanʼatidan ham yaxshi xabardor boʻlganini, uning muayyan ilmiy gʻoya va

¹⁰ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013. 27-бет.

qarashlarining shakllanishida bu buyuk manbaning ham roli oz bo'lmaganini ko'rsatadi. Shuning uchun hozir turli tillarni egallab, shakllanib borayotgan avlodlar oldida buyuk vatandoshimizning ilmiy merosini qiyosiy metod asosida o'rganish, uning Arastu, Aflotun, Homer singari buyuklar bilan bir safda turishini asoslash vazifasi turadi. Naim Karimovning mazkur "Hindiston, Homer va Beruniy" nomli maqolasi o'quvchilarga notanish bo'lgan yuqoridagi kabi ma'lumotlari bilan ahamiyatlidir.

Mazkur bobning "Alisher Navoiy va Ahmad posho" maqolasida olimning qimmatli fikrlari keltirilgan. Hazrat Alisher Navoiy ijodining jahon, ayniqsa, turkiy adabiyotlarga ta'siri masalasi XX asr adabiyotshunosligining muhim qirrasini sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan Navoiy ijodining Fuzuliy, Nisoriy hamda Maxtumdul asarlariga ko'rsatgan samarali ta'siri asosida yirik tadqiqotlar yaratilgan. Olmon olimasi Z.Kleyenmixel esa, e'tiborni Navoiy va Ahmad Posho (usmonli turk shoiri) mavzuga qaratib, Navoiy ijodining olamshumul ta'siri doirasi yanada kengayganligini ko'rsatuvchi kuzatishlar e'lon qilgan. Albatta, bu quvonchli ma'lumot har bir o'zbek ziyolisida Hazrat Navoiy dahosi sari rag'bat uyg'otadi. Naim Karimov esa mutaxassis olim sifatida ayni adabiy ta'sir va hamkorlikning tayanch nuqtalarini aniqlab, unga maxsus maqola bag'ishlaydi. Tabiiyki, N.Karimov maqolasidan keyin Navoiy va usmonli adabiyoti, xususan, Ahmad Posho ijodiga o'zbek olimlarining ham qiziqishi ortdi va bu ilmiy ma'lumotning amaliy natijasi o'laroq Ahmad Posho devoni o'zbek tilida chop etildi va Alisher Navoiy ijodini ushbu shoir merosi bilan qiyoslagan tadqiqoti yaratildi.¹¹

Naim Karimovning adabiyot va tarixiy jarayon masalalariga bag'ishlangan maqolalari orasida Toshkentda yashab ijod qilgan yoki Shoshiy (Chochiy) taxallusi bilan adabiy asarlar yaratgan ijodkorlar alohida o'rin tutadi. Har bir shahar ziyolisi o'zining buyuk o'tmishdoshlari bilan faxrlanishi barobarida Ulug' zotlardan qolgan ma'naviy bisotni o'rganishga, uning talqinini zamondoshlari bilan baham ko'rishga harakat kiladi. Shu jihatdan "Bobokalon shoirlar" maqolasida Abu Muhammad

¹¹ Аҳмад Пошо. Девон / Нашрга тайёловчи Р. Рўзмонова. – Т.: Академнашр, 2011.

Matroniy, Abu Omir ibn Axmad Shoshiy, Badri Chochiy haqida ma'lumot berilsa, "Shoshiylar avlodi" maqolasida esa Akmal Toshkandiy, Dilafkor, Iffat, Shoir kabi ilm ahliga deyarli noma'lum shoirlar haqida manbalarda qayd qilinganlarni jamlab, kitobxonlarga yetkazadi.

"Yorkent asiri" (Furkat) haqidagi maqolasida furqatshunoslar e'tiboriga shoirning "Kajkul" to'plamini eslatish barobarida turkshunos olim E.Tenishevning 1995- yildagi kundaliklari asosida o'zbek furqatshunosligini yangi ilmiy xabarlar bilan to'ldiradi.

Albatta, adabiyotshunos olim Naim Karimovning tadqiqot ob'yektimiz bo'lgan "Adabiyot va tarixiy jarayon" kitobining ushbu "Mumtoz adabiyotga bir nigoh" turkumiga kiruvchi maqolalarida o'quvchilar e'tiboriga taqdim etilgan ma'lumotlar o'zining ilmiy faktlarga boyligi va muallif uslubidagi o'ziga xos uslub bilan qimmatlidir.

1.3. "Charog'bonlar" bobida taraqqiy'arvar insonlar faoliyatining yoritilishi

"Charog'bonlar" turkumi turkiy dunyoning I.Gasprinskiy, S. M. Gramenitskiy, S.Aziziy, M.Behbudiy, A.Shakuriy, M.Abdurashidxonov, H.Jovid, Bakir Cho'ponzoda kabi yulduzlari ijodiga bag'ishlangan. I.Gasprinskiy haqidagi maqola-tadqiqot faqat Ulug' muallimning hayoti va faoliyatini o'zbek kitobxonlariga tanishtirish bilan cheklanmaydi, balki I.Gasprinskiy va Turkiston mavzusining ildizlariga borib taqaladi, qrim-tatar muharriri nega Turkistonda mashhur bo'lib ketdi, uning uch bora tashrifining sabablari nimada edi? savollariga javob beradi. Turkiston mustamlakachiligi bilan Gasprinskiyni birlashtirgan umumiy maqsad, erk istagi ekanini, shuning uchun ham o'lkada erk tuyg'ularini uyg'otgan ustozdan erkinlikka chiqish amallarini kutib, "Tarjimon"ga ilxak bo'lganlarini anglatib beradi. Mana muxim xulosa: "Uning (I.Gasprinskiyning) nazarida, slavyan-turk dialogining muntazam asosda yo'lga qo'yilishi har ikkala xalqni o'zaro yaqinlashtirish va ular madaniyatining yuksalishiga xizmat qilishi muqarrar edi". Bu

holni tabiiy zarurat deb bilgan N.Karimov "Ammo "Tarjimon"ning Turkiston uchun ahamiyati, birinchi navbatda, mahalliy yoshlarda milliy uygʻonish ruhini tarbiyalagani, ularni maʼrifat va madaniyatning yangi marralariga yetaklaganidir" deya yuqoridagi savolga javob beradi. Bu bilan kifoyalanmay krim-tatar olimini oʻzbek ziyolilari bilan bogʻlab turgan robitalarni faqat gʻoyadan emas, balki qarindoshlik munosabatlaridan ham axtaradi. Chunki N.Karimov hujjat bilan ishlashni yoqtiradi, uning xulosalari ham ehtiroslar taʼsiri emas, balki mana shu hujjatli asosning natijasi oʻlaroq koʻrinadi. Maqolada keltirilishicha, "Biroq I.Gasprinskiyning Hadicha ismli boshqa bir qizi 20-yillarda falakning gardishi bilan Toshkentga kelib, oʻzining tahdid, tazyiklardan holi boʻlmagan hayotini shu yerda kechirgan va shu yerda palak yozgan (Hozir Toshkentda uning farzand va nevaralari istiqomat qilishadi)". Naim Karimov shuni alohida tahkidlaydiki, I.Gasprinskiy nafaqat noshir, balki jurnalist va pedagog edi. "Tarjimon" gazetasining, hatto oʻzining ham shiori "Tilda, fikrda, ishda birlik" soʻzlari boʻlgan I.Gasprinskiy badiiy ijod bilan ham shugʻullanib, madaniyatning bu gʻaroyib sohasidan oʻz maqsadi va maslagi yoʻlida samarali foydalandi. Shu maʼnoda uning 1887 yili "Tarjimon" gazetasida eʼlon qilina boshlagan "Dorul-rohat musulmonlari" romani alohida eʼtiborga sazovor. Uch kitobdan iborat ushbu romanning "Farangiston maktublari", "Afrika maktublari" va "Ayollar saltanati" degan tarkibiy qismlari muallifning Turkistonga katta umid va hurmat bilan qaraganidan shahodat beradi. Romanning birinchi qismiga toshkentlik Mulla Abbosning bosh qaxramon etib tanlangani bejiz emas. Yozuvchi garchand Fransiyaga sayohat qilgan Mulla Abbos obrazida oʻzining shaxsiy taassurotlari va qarashlarini ifodalagan boʻlsa-da, bu obrazda Toshkentda tanishgan doʻstlariniig ham ayrim qirralari ifodalangan boʻlishi mumkin.

“Turkiy dunyo yulduzi” maqolasida yana shu maʼlumotlar beriladiki, "Tarjimon" gazetasining Turkistondagi axlining ijtimoiy, maʼrifiy va madaniy hayotiga katta taʼsir koʻrsatganining yana bir muhim tomoni bor. Bu Turkiston mavzuining mazkur gazeta sahifalaridan keng oʻrin egallashidir. Maqolada

keltirilisha, I.Gasprinskiy Turkistonga qilgan safari taassurotlari asosida gazetada turkum maqolalar e'lon qildi. Uning, chunonchi, "Buxoro va Boqchasaroy", "Boqchasaroydan Toshkentga sayoxat", "Marg'iloniy Burhoniddin olim, "Hidoya" ("Shariat") kitobining muallifi (so'nggi maqola gazetaning to'rt sonida bosilgan) maqolalari Turkiston ziyolilari tomonidan qizg'in kutib olindi. Ammo "Tarjimon" ning Turkiston uchun ahamiyati, birinchi navbatda, mahalliy yoshlarda milliy uyg'onish ruhini tarbiyalagani, ularni ma'rifat va madaniyatning yangi marralariga yetaklaganidir. Xullas, I.Gasprinskiy va uning gazetasi Turkiston ziyolilari o'rtasida katta shuhrat qozondi.

Naim Karimovning "Turkiy dunyo yulduzi"¹² maqolasida ma'lumot berishicha, Ismoil Gasprinskiy birinchi marta 1876-yilda uylangan edi. Ammo uning birinchi xotini bilan hayoti ko'ngildagidek bo'lmadi. Shundan keyin u 1882-yili Volga bo'ylarida yashovchi tatar qizlaridan biriga uylanadi. Zuhraxonim Tataristondagi mashxur Okchurinlar sulolasidan bo'lib, I.Gasprinskiyni maqola va risolalari orqali yaxshi bilgan va hatto uni g'oyibona sevgan qiz edi. Oradan bir necha vaqt o'tgach, u ota-onasi bilan Krimga istirohat uchun borgan va shu safari vaqtida Boqchasaroyga tashrif buyurib, I.Gasprinskiy bilan tanishgan va unga turmushga chiqqan edi. Zuxraxonim uchun I.Gasprinskiy qanday ulug' va munavvar siymo bo'lgan bo'lsa, uning o'zi ham Boqchasaroy "sulton" iga shunday aziz va har tomonlama mu-nosib "malika" edi. Zuxraxonim 1902-yilda vafot etguniga qadar turmush o'rtog'ining har bir ishida, ayniqsa, "Tarjimon" gazetasining nashr etilishi va tarqalishida shunday madadkor bo'ldiki, zamondoshlar uning I.Gasprinskiy hayotida tutgan o'rnini yuksak baholab, uni dunyodagi sevgi va vafoning tirik ilohalariga qiyos qilganlar. I.Gasprinskiyning eng mushkul va mashaqqatli daqiqalarida erining sadoqatli yo'ldoshi bo'lgan Zuxraxonim, gasprinskiyshunoslardan birining yozishicha, Parvardigor tomonidan unga yuborilgan baxt-saodat edi.

¹² Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., "Мумтоз сўз". 2013.38-бет.

Naim Karimovning ta'kidlashicha, M.Behbudiy va M.Abdurashidxonov boshliq o'zbek jadidlari I.Gasprinskiy va uning g'oyalariga katta hurmat bilan munosabatda bo'ldilar. Turkistonda "usuli jadid" maktablarining paydo bo'lishi va milliy matbuotning yuzaga kelishida I.Gasprinskiyning ta'siri, ayniqsa, beqiyosdir. Lekin o'zbek xalqi, umuman, musulmon xalqlari madaniyatining rivojlanishidan manfaatdor bo'lmagan, aksincha, shu sohadagi ishlarga hamisha qarshilik ko'rsatgan chor hukumati I.Gasprinskiyni ham, uning turkistonlik izdoshlarini ham ta'qib ostiga oldi. I.Gasprinskiyning 1893-yilning may-iyul oylarida Buxoro amiri taklifi bilan Turkistonga qilgan birinchi safari har tomonlama samarali bo'ldi. Shu safar vaqtida Ismoilbek bilan uning Turkistondagi muxlislari o'rtasida do'stlik aloqalari o'rnatildi. Ayni paytda mazkur safar o'lka mahmuriyatiga ko'pgina tashvish ham orttirdi. Zero, o'lkani idora qilgan chor ma'murlari Turkistonga ilg'or g'oyalarning kirib kelishidan mutlaqo manfaatdor emas edilar. Shuning uchun ham ular bunday g'oyalarning kirib kelishiga tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatib kelganlar. "Turkiy dunyo yulduzi" maqolasida keltirilishicha, I.Gasprinskiy 1908-yili Samarqandga ikkinchi marotaba kelganida mahalliy hokimiyat vakillari bu kutilmagan voqea haqida Samarqand viloyati harbiy gubernatori A.S. Galkinni xabardor qilishni o'zlarining burchlari deb bildilar. I.Gasprinskiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari M.Behbudiy, A.Qodiriy, Hamza, Fitrat va Cho'lpon singari o'zbek jadidlarining asarlari orqali butun Turkiston bo'ylab yoyildi. Yuqoridagi kabi aniq faktlarga tayangan holda berilgan ma'lumotlar, albatta, adabiyotimiz va millatimiz tarixi bilan qiziquvchi har qanday o'quvchini qiziqtiradi. Shuningdek, biz uchun yangilik bo'lgan bu kabi fikrlar milliy uyg'onish davri vakillarining faoliyati va qismatini bilishimizda ahamiyatlidir.

"Adabiyot va tarixiy jarayon" kitobidagi "Atoqli pedagog"¹³ maqolasida ma'rifatparvarlar haqida ma'lumotlar keltiradi. Ayniqsa, Behbudiy va Munavvar qori, A. Shakuriy va S. Majidov haqidagi maqolalar nafaqat xujjatligi, balki taraqqiyparvar olimlarimiz ijod va faoliyatini xalqimizga tanitib ulgurgan bu buyuk

¹³ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., "Мумтоз сўз". 2013.54-бет.

allomalar haqidagi qarashlarimizni ham to'ldira olishi bilan ahamiyatlidir. Ayni shu turkumda o'zbek milliy uyg'onishi uchun xizmat qilgan rus ziyolilari, rus-tuzem maktablarini tashkil qilgan S.Gramenitskiy va turkiyot professori Ye.Polivanov haqida nozik kuzatishlar bor: "Bunday maktablarni ochishdan maqsad Chor hokimiyatiga sodiq kishilarni tarbiyalash bo'lgan. Biroq, shunga qaramay, bu maktabda tahsil ko'rgan turkistonlik aksar yoshlar (Cho'lpon singari) keyinchalik Chor va sovet hokimiyatlarining mustamlakachilik siyosati mohiyatini tushunib, o'zlari mansub bo'lgan xalqni uyg'otish yo'lida faoliyat olib borganlar. O'zbek pedagogikasi tarixida XX asr mutlaqo yangi bir davrni tashkil etadi. Bu davrda o'zbek madaniyati tarixida birinchi marta jahon andozalariga yaqinlashgan ta'lim tizimi yaratildi va amalga oshirildi: yangi tipdagi boshlang'ich, o'rta va oliy maktablar maydonga keldi; dunyoviy fanlar bu maktablarning o'quv dasturidan asosiy o'rinni egalladi; fanning o'quv dasturiga kirgan barcha sohalaridan darslik, qo'llanma va majmualar yaratildi; bu fanlarni o'qitish metodikasi ishlab chiqildi. Tarixiy ahamiyatga molik bu ishlarni yuzaga chiqarishda XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda yashagan rus pedagoglarining xizmatlari oz emas. Shunday e'tiborga sazovor rus pedagoglaridan biri Sergey Mixaylovich Gramenitskiydir.¹⁴

Maqolada keltirilishicha, H.H.Niyoziy va G'afur G'ulom singari o'zbek xalqi tarixini yaxshi bilgan fan va madaniyat arboblarning xotiralari va hatto badiiy asarlarini o'qisak, ularda S.M.Gramenitskiy va uning «Birinchi o'qish kitob»i («Pervaya kniga») to'g'risida g'oyat samimiy, ilq so'zlar aytilganiga guvoh bo'lamiz. Agar S.M.Gramenitskiyning pedagogik g'oyalariga, darslik va o'quv qo'llanmalariga nazar tashlasak, XX asr boshlarida ro'y bergan ta'lim islohotida, yangi usuldagi maktablar hamda bu maktablar uchun o'quv dasturlari va qo'llanmalarining paydo bo'lishida uning ta'siri katta bo'lganiga ishonch hosil qilamiz. Shuningdek, Naim Karimovning "Atoqli pedagog" maqolasida alohida

¹⁴ O'sha manba.

urg‘u berib yozishicha, rus-tuzem maktablari uchun nashr etilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari, birinchi navbatda, S.M.Gramenitskiyning asarlari, XX asr boshlarida yangi usuldagi milliy maktablar uchun pedagogik risolalarning yaratilishida andoza vazifasini o‘tadi. Shunday fikrlar keltiriladi: “Dastlabki o‘zbek pedagoglari Saidrasul Aziziy, Munavvar kori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza va boshqalar o‘z pedagogik risolalarini yaratishda S.M.Gramenitskiyning mazkur kitoblaridan samarali foydalandilar. Uning «Birinchii o‘qish kitobi» esa o‘zbek milliy alifbe kitoblarining paydo bo‘lishiga katta ta’sir ko‘rsatdi”¹⁵. H.H.Niyoziy va G‘afur G‘ulom singari o‘zbek xalqi tarixini yaxshi bilgan fan va madaniyat arboblarning xotiralari va hatto badiiy asarlarini o‘qisak, ularda S.M.Gramenitskiy va uning «Birinchii o‘qish kitobi» («Pervaya kniga») to‘g‘risida g‘oyat samimiy, iliq so‘zlar aytilganiga guvoh bo‘lamiz. Agar S.M.Gramenitskiyning pedagogik g‘oyalariga, darslik va o‘quv qo‘llanmalariga nazar tashlasak, XX asr boshlarida ro‘y bergan ta’lim islohotida, yangi usuldagi maktablar hamda bu maktablar uchun o‘quv dasturlari va qo‘llanmalarining paydo bo‘lishida uning ta’siri katta bo‘lganiga ishonch hosil qilamiz.

“Atoqli pedagog” maqolasida S.M.Gramenitskiyning bundan 145 yil muqaddam, 1859-yil 6-sentyabrda Vladimir gubernyasidagi Abakulovo qishlog‘ida tug‘ilgani, ota-onasidan yosh yetim qolganligi sababli 5 yoshidan boshlab opasi Yelizaveta Mixaylovnaning oilasida tarbiya ko‘rgani va Yelizaveta Mixaylovna aql-zakovatli, zukko, vazmin, mirishkor ayol bo‘lganligi, ayniqsa, tibbiyot sirlarini mustaqil ravishda o‘rganib, xalq shifokori sifatida hamqishloqlarining jonlariga oro kirganligi sababli ular o‘rtasida katta obro‘-e’tibor qozongan. Sergey yoshligida ana shu opasining ko‘rkam fazilatlarini ko‘rib o‘sgani va undan har tomonlama ibrat olishga intilgani, kabi aniq faktlarga asoslangan qiziqarli ma’lumotlar pedagogika tarixida alohida o‘ringa ega bo‘lgan bu insonning hayoti, faoliyatini bilishimizda juda ahamiyatlidir. Maqolada shunday fikrlar keltiriladi: “S.M.Gramenitskiy Toshkentda faqat dars berish bilangina mashg‘ul bo‘lmadi. U 1887-yili V.F.Oshanin

¹⁵ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013.51-бет.

bilan birga Yettisuvga borib, o'sha kezlarda sodir bo'lgan zilzilaning sabab va oqibatlarini o'rgandi. 1895-yili Toshkent erlar gimnaziyasining o'quvchilarini Samarqand, Panjikent shaharlariga, shuningdek, Mirzacho'lga «ilmiy-tarbiyaviy ekskursiya»ga olib bordi. U har ikkala ilmiy safar haqidagi hisobotni «Turkestanskije vedomosti» gazetasida e'lon qildi. 1896-yili esa Nijniy-Novgoroddagi ko'rgazmaga borib, Rossiyadagi ta'lim va tarbiya ishiga bag'ishlangan bo'lim materiallari bilan yaqindan tanishdi, yangi reja va niyatlar bilan qaytib keldi.»¹⁶

S.M.Gramenitskiyning diqqat-e'tibori 1892 yildan e'tiboran asosan boshlang'ich maktabga qaratildi. O'sha yilning 15-dekabrida u Sirdaryo viloyatidagi xalq bilim yurtlariga inspektor etib tayinlandi. 1893-yili esa u Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari boshqarmasidan Toshkent erlar gimnaziyasi 8-sinfi o'quvchilarining matematika bo'yicha yetuklik sinovlariga, o'sha vaqtning atamasi bilan aytsak, «deputat» etib tayinlandi. S.M.Gramenitskiy 1900-yildan boshlab 1910-yilga qadar, o'n yil mobaynida Toshkent erlar bilim yurti talabalarining bitiruv, sinov va imtihonlariga qatnashib, «deputatlik» burchini bajardi. S.M.Gramenitskiyning «Ikkinchi o'qish kitobi»da vatan to'g'risida ham fikrlar bor. Unda vatanning bunday ta'rifi berilgan: «Har qanday kishi o'z vatanini sevadi: u shu yerda tug'iladi, yoshlik paytida ota-onasi uni shu yerda parvarish etadi, boqadi, unga g'amxo'rlik qiladi. Uning qarindosh-urug'lari va tanish-bilishlari shu yerda yashaydi; ularning hammasi bir tilda so'zlashadi, bir-birini biladi, bir-birini tushunadi. U hayotining eng baxtli kezlari - yoshligini shu yerda o'tkazadi...»

Yulduz tunni yoritish bilan birga u yorug'likka oshufta qalblarni ham charog'on qiladi. SHuning uchun uning taratgan ziyosi bir-ikki shaxsni, yoki bir necha kishilar, boringki, bir millat doirasidagi shaxslar, balki tunda yo'l topishga chog'lanib turganlar yo'lini charog'on qiladi, Shu ma'noda ozar adibi Xusayn Jovid va tatar olimi Bakir Cho'ponzoda haqida so'z yuritilarkan, biz ularni xuddi o'z adibimizday suyamiz, ular yaratgan oydinliklardan barcha turkiylar kabi bahramand bo'lamiz. «Charog'bonlar» turkumiga kiritilgan ma'rifatparvarlarga bag'ishlangan

¹⁶ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., «Мумтоз сўз». 2013.219-бет.

maqolalardan birisi “Buyuk ozarbayjon dramaturgi” deb nomlansa, qatag‘on qurboni bo‘lgan yana bir fidoyi inson haqida aniq faktlarga tayanib yozilgan maqola “Turkiy olamning munavvar farzandi” deb nomlangan. Akademik Z.Bunyodov Ozarboyjonda qatag‘on qilinganlar xususida yozarkan, "milliy kadrlarni tamomila mahv etmak, ilk navbatda dunyoga mashhur, o‘zligini anglagan, dunyoni mulohaza etgan, yangi fikrli olimlar, mutafakkir va intellektuallarni oradan ko‘tarmak 30-yillarda o‘lkani idora qilgan rahbar "klan" qora qullari bilan chang solar edi" degan umumlashma bilan professor B.Cho‘ponzodaning qora kunlariga doir hujjatlar keltiradi¹⁷. Chunki fikr nafaqat birgina olimga, balki millatning guli bo‘lgan barcha shaxid bo‘lgan ziyolilariga tegishlidir.

Bulardan tashqari olim “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobida “Tarixiy lavhalar” deb nomlangan bobni ham ilm ahli e‘tiboriga havola qilgan. Mazkur bobda “Qutadg‘u biligning topilishi”, “Bir adabiy qalloblik tarixi”, “E‘zoz va jazo”, “Xotirlash soati kelmoqda” kabi maqolalar turkumini keltirgan.

Haqiqatdan ham, keyingi yillar ichida olimning turli xil ma‘muriy idoralar hamda jamoatchilik tashkilotlarining arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar asosida “Cho‘lpon uchun kishan”, “Assalomu alaykum dorning og‘ochi”, “Oybek: tosh ekan boshim...”, “Zulmat saltanatining vaxshatlari”, “O‘zbek kinosining qaldirg‘ochi”, “Navbat Oybek, keyin Shayxzodaga, keyingisi kimga?”, “Alpomish”ning qatliom etilishi” singari o‘tkir ruhda yozilgan maqolalari Naim Karimovning fidoyi, vatanparvar, shu bilan birga jonkuyar olim sifatidagi qiyofasini namoyon etadi. Shu jihatdan “Alpomish”ning qatliom etilishi” maqolasi ham e‘tiborlidir. Bu maqola yuqoridagi turkumning mantiqiy davomi bo‘lib, unda XX asrning 50-yillari ilm olamidagi ojizliklar-u, uning madaniyatimiz tarixiga ko‘rsatgan oshkora va pinhona zararlari ochib beriladi.

Ta‘bir joiz bo‘lsa, olim, hech shubhasiz, “Charog‘bonlar” va “Tarixiy lavhalar” deb nomlangan turkum maqolalari bilan madaniyatimiz tarixining kematik sahifalarini adolat nurlari bilan nurlantirib yubordi. “Charog‘bonlar” turkumiga

¹⁷ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013. 355-бет.

kiruvchi maqolalarini yozishda davom etdi”.¹⁸ Umuman, so‘nggi o‘n yil ichida qatag‘on qurbonlarining nomlarini abadiylashtirish yo‘lida olib borayotgan fidoyi mehnatlari, bu yo‘nalishda e‘lon qilinayotgan qator publitsistik maqolalari, uning rahbarligida tayyorlanib, chop etilayotgan shahidlar xotirasiga bag‘ishlangan “Surgun”, “Repressiya” singari kitoblar - bu olim va jamoat arbobining faoliyati havas qilarli darajada jo‘shqin va serunum kechayotganidan dalolat beradi. Bu mehnatga davlatimiz va hukumatimiz munosib e‘tibor berayotgani ham, ayniqsa, quvonarli. Naim Karimovning O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi faxriy unvoni hamda, “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlanishi mustaqillik davrida ziyolilarga ko‘rsatilayotgan yuksak e‘tiborning yorqin dalilidir.

¹⁸ Шермухаммедов П. Мудхиш даврлар ҳақиқати. // Тошкент оқшоми. 1988 №4

II BOB. “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobida ulug‘ insonlar taqdiriga adabiy-ilmiy munosabat

2.1. “Turfa taqdirlar”da XX asr boshidagi millat ma’rifatparvarlari taqdirlarining yoritilishi

Naim Karimov adabiyot olami, ayniqsa, yozuvchi hayoti va ijodidagi ko‘z ilg‘amas oqimlarga serob badiiy estetik yo‘nalishlarni ham chuqur idrok etib, nihoyatda nozikta’blik bilan tahlil qiladi. Naim Karimovning adabiy-tanqidiy qarashlarida so‘z san’atiga chuqur ehtirom, samimiyat nurlanib turadi. U adabiy jarayon bilan birga qadam tashlaydi, har bir asarga alohida e’tibor bilan qaraydi, bunda xolislik, eng muhimi, samimiylik, to‘g‘riso‘zlik, san’atkor ijodiga yuksak ehtirom bilan qarash olim yodining konsepsiyasini tashkil qiladi.

“Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobining “Turfa taqdirlar” bobida XX asr boshidagi millat ma’rifatparvarlari taqdirlari haqida aniq faktlarga asoslangan, adabiy-ilmiy ma’lumotlarni taqdim qilgan. Ushbu turkumga “Vamberining o‘zbek hamrohi”, “Lev Tolstoy bilan uchrashgan o‘zbek”, “Birinchi tog‘ injeneri”, “Ilhom samovarchi”, “Buxoro amirining gruzin nevarasi” va boshqa maqolalari millatimiz tarixida o‘tgan bizga unchalik tanish bo‘lmagan ma’rifatparvar yurtdoshlar taqdirlarining yoritilishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur to‘planning “Turfa taqdirlar” turkumidagi “Vamberining o‘zbek hamrohi” nomli maqolasida mojar olimi Armin Vamberiga hamrohlik qilgan yurtdoshimiz Mulla Is’hoqning taqdiri yoritib berilgan.

Ma’lumki, Mojar tili Oltoy tillari oilasiga mansub. Hozirgi mojarlarning olis ajdodlari bir zamonlar Sibirda, Boshqird tekisligida turkiy xalqlar bilan qo‘ni-qo‘shni bo‘lib yashaganlar va falakning gardishi bilan Buyuk ko‘chish davrida tarixiy joylarini tark etib, asta-sekin Yevropa sari siljib borganlar.

Muallifning turkumga “Vamberining o‘zbek hamrohi” maqolasida keltirishicha, 16 yoshida mojar va lotin tillaridan tortib, fransuz, nemis, ingliz va Skandinaviya tillarini yaxshi bilgan, slavyan tillaridan ozmi-ko‘pmi xabardor bo‘lgan Armin keyingi hayotini ham G‘arb va Sharq tillarini o‘rganishga bag‘ishlamoqchi bo‘ladi. Mojar tilining kelib chiqish ildizlarini aniqlash istagida 1852-yili SHarq mamlakatlariga safarga chiqadi. U dastlab Turkiyaga kelib, Konstantinopol (hozirgi Istanbul)da istiqomat qilgan badavlat turk xonadonlarida bolalarga fransuz tilidan saboq beradi. U shu asnoda turk tilini o‘rganibgina qolmay, sharqona libos kiyib, turklardan sira ham ajratib bo‘lmaydigan qiyofa kasb etadi. Ayni paytda islom dinining yo‘l-yo‘riqlarini qunt bilan o‘rganib, hatto “Rashid afandi” degan nomni ham oladi.

Olimning ma’lumot berishicha, “Rashid afandi” 1863-yil boshlarida Tehronga keladi. U Turkiyaning Tehrondagi elchisi yordamida O‘rta Osiyoga darvesh qiyofasida kirib borish rejasini tuzadi. Sharq xalqlari tabiatini yaxshi bilgan elchining fikriga ko‘ra, uning Makkadan kelayotgan hojilar karvoni bilan birga O‘rta Osiyoga kirib borishi ayni muddao edi. “Rashid afandi”ning baxtiga, Makkadan yo‘lga chiqqan hojilar karvoni o‘sha yilning 27-martida Tehronga yetib keladi. Elchi shu kuni safarga otlangan Armin Vamberi sharafiga katta ziyofat beradi. 28-mart kuni esa Vamberi tong azonda darvish qiyofasida karvon bilan O‘rta Osiyoga yo‘l oladi. Oradan roppa-rosa ikki oy o‘tgach, 29-may kuni Xorazm xonligi hududlariga kirib keladi. 30-may kuni Vamberi kundaligiga quyidagi so‘zlarni yozadi: “30-may kuni biz o‘zbek qishlog‘iga kirib keldik. Bu qishloq aholisi men ko‘rgan birinchi o‘zbeklar edi...”¹⁹

Ushbu maqolani o‘qib, dunyo madaniyati tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan tarixchining yurtimizga qilgan safaridan ko‘zlagan maqsadi, qolaversa olgan taassurotlari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘lamiz. Maqolada shunday yoziladi: Yangi Sharq mamlakati va uning kishilari Vamberini hayratga soldi. Unga Amudaryoning suvi ham, Xivadagi me’moriy obidalar ham, bog‘-rog‘lardagi

¹⁹ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013.287-бет.

mevalar ham, hamma-hammasi manzur bo'ldi. U O'rta Osiyoning o'zi ko'rgan Xorazm, Buxoro, Samarqand va Qarshi shaharlarining jug'rofiy mavqei, harbiy salohiyati, yer usti va yer osti boyliklari, iqtisodiy, madaniy va maishiy hayoti to'g'risida mukammal ma'lumot to'play boshladi. Biz uchun ahamiyatli tomoni Vamberining xorazmlik Mulla Is'hoq degan kishi bilan tanishuvi, bu insonning o'zi kimligi va Vamberi bilan qanday aloqalari borligi haqidagi ma'lumotlarning keltirilishidir.

Olimning ma'lumot berishicha, "Rashid afandi" Xivaga kelgan dastlabki kunlarining birida o'zi haqida yaxshi taassurot qoldirish istagida Muhammadamin madrasasiga borib, nufuzli o'quv maskanini ziyorat qiladi. Madrasada ta'lim olayotgan boshqa mullalar qatori Mulla Is'hoq bilan ham tanishadi. Mulla Is'hoq asli qo'ng'iroqlik bo'lib, o'sha kezlari Makkaga borish va haj ziyoratini amalga oshirish orzusi bilan yashardi. U "Rashid afandi"ning O'rta Osiyo safaridan keyin Makkaga borish haqidagi niyatidan voqif bo'lib, o'sha kundan boshlab unga hamrohlik, hatto uning Buxoro, Samarkand va Qarshi shaharlari bo'ylab qilajak safarida dastyorlik qilishni o'ziga sharaf deb biladi. "Rashid afandi" ham boshqa o'rta osiyolik hamrohlariga nisbatan bu o'ta kamtar, kamsuqum, zukko, ochiqko'ngil, ayni paytda bilimdon va chaqqon mullavachchani xush ko'rib qoladi. Boshqa mullalar "Rashid afandi" yordamida haj safariga borishga ko'zlari yetmay, uni tark etganlarida ham, Mulla Is'hoq uning etagini qo'yib yubormaydi, unga birdan-bir sadoqatli xamroh bo'lib qoladi.

Vamberi O'rta Osiyoga bag'ishlangan kitoblarining birida u haqida bunday samimiy so'zlarni yozgan: "Bilimga tashnaligi va menga yaqinligi yosh mullaga bo'lgan e'tiborimni oshirdi. Bu yosh mulladan, chindan ham, biror munosib kishi chiqishini sezganimdan keyin uni tashlab ketmaslikka va iloji bo'lsa, o'zim bilan birga Yevropaga olib ketishga qaror qildim. Men bu qarorga Hirotga yetmasimizdan ancha avval kelgan edim. Men birinchi tanishganimdayoq uning sof qalbli insonlardan ekanligini sezgandim, shu masalada men hech qachon

adashmaganman”²⁰.

Tahmin qilish mumkinki, Vamberining qisqa muddatli safari davomida O‘rta Osiyo shaharlari va aholisiga doir qimmatbaho ma’lumotlarni to‘plashida unga bu hokisor va mehnatkash inson katta yordam bergan. Vamberi asarlaridagi bu g‘aroyib yurtdoshimiz to‘g‘risidagi fikrlarni to‘plab o‘rgangan X.Ismatulaevning yozishicha, “...u har vaqt yoshi ulug‘ bo‘lgan Rashid afandi - Vamberi bilan bir kosadan ovqat yemagan, Vamberi ovqatdan olib bermaguncha unga ko‘l tekkizmagan, u bilan bir qatorda yonma-yon teng turishni ham odobdan deb bilmagan. U eng halol, ochiq ko‘ngil inson edi, uning g‘arazdan yiroq, sof muhabbati xavf-xatarga to‘la yolg‘iz yo‘limda menga dalda va suyanchiq bo‘ldi”, - deb eslagandi sayyoh,²¹. Naim Karimov shu kabi ma’lumotlarni keltirar ekan, Mulla Is’hoqning keyingi taqdiri haqida ham xabarlarini keltiradi: “Rashid afandi” Mulla Is’hoq bilan birga 1863-yil kuzning boshlarida Qarshi shahrini tark etib, dastlab Hirotga, 15-noyabr kuni esa Hirotidan Mashhadga boradi. U asl qiyofasiga qaytib, yana Armin Vamberi sifatida o‘sha yilning 25 -dekabrigacha Mashhad gubernatori vazifasini ado etayotgan ingliz polkovnigi Dolmajning mehmoni bo‘ladi. 1864 -yil 4- yanvar kuni Tehronga yetib borib, Buyuk Britaniyaning Erondagi elchisi Alisoy bilan uchrashadi, Eronning yosh podshohi Nazriddinshohning qabulida bo‘ladi.

Tabiiyki, Mulla Is’hoq “Rashid afandi” - Armin Vamberining bu mahfiy uchrashuvlarida qatnashmay, sirli hamrohini karvonsaroylarda kutib vaqt o‘tkazadi. Sayyoh Tehronda ikki oy turgach, 1864- yilning mart oyida hamrohi bilan birga Konstantinopolga yetib kelganida, Mulla Is’hoqning qo‘liga pul berib, Makkaga boradigan yo‘lni ko‘rsatadi va uning haj safariga yolg‘iz borishi mumkinligini aytadi. Mulla Is’hoq aldanganini sezgan bo‘lsa ham, Makkaga yolg‘iz borishga cho‘chibmi yoki safar davomida hamrohi ta’sirida haj orzusidan voz kechibmi, “Rashid afandi”dan o‘zini begona yurtda tanho qoldirmaslikni, u bilan Farangiston (Evropa)ga borib, u yerni ko‘rib, so‘ngra Konstantinopolga qaytishiga imkon

²⁰ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013.287-бет.

²¹ O‘sha joyda.

berishini iltimos qiladi. Shundan keyin ular birgalikda Vengriyaning o‘sha yillardagi poytaxti Peshtga yo‘l oladilar. Vamberi ona vataniga yetib kelgach, Mulla Is‘hoqni do‘stlari ixtiyoriga topshirib, o‘zi safar hisobotini berish uchun Londonga jo‘naydi. Bu kabi qiziqarli faktlar o‘quvchini qiziqitirmay qo‘ymaydi, albatta. “Vamberining o‘zbek hamrohi” maqolasida Mulla Is‘hoqning Vengriyadagi hayoti ham yoritilgan. Ya‘ni, Mulla Is‘hoq, Pesht shahrida yashar ekan, Vamberining do‘st-yorlari ko‘magida qisqa vaqt ichida mojar tilini o‘rganib oladi. Shundan keyin qo‘ng‘irotlik mulla ular yordamida Vengriya Fanlar akademiyasining Sharq qo‘lyozmalari bo‘limiga ishga joylashadi. U mojar olimlarining Sharq qo‘lyozmalarini to‘g‘ri o‘qishlari, ularning Sharq, xususan, o‘zbek madaniyati va tarixini o‘rganishlari va shu masalalarga oid ilmiy asar yozishlariga o‘z maslahatlari bilan yordam beradi.

O‘sha paytda mazkur kutubxonada kutubxonachi bo‘lib ishlagan, keyinchalik Budapesht universiteti oltoyshunoslik va fin-ugorshunoslik kafedrasiga mudirlik qilgan, shu sohadagi ilmiy ishlari uchun Vengriya Fanlar akademiyasiga haqiqiy a‘zo etib saylangan Yozer Budents (1836-1892) “Tilshunoslik xabarlari” jurnalining 186- yil sonlaridan birida bunday yozgan edi: “O‘tgan yilning may oyi oxirlarida bu yerga Turkiston safarida Armi Vamberiga hamrohlik qilgan Qo‘ng‘irot shaharlik (24 yoshlar atrofidagi) yosh o‘zbek Mulla Is‘hoq, kelgan edi. U bilan uch oy birga bo‘ldim va bunday ajoyib imkoniyat mening Xiva o‘zbeklari shevasini o‘rganishimga katta naf keltirdi. Men bu borada yozgan bir necha qo‘lyozmalarimni uning talaffuzi asosida mukammallashtirishga erishdim. Xiva xonligidagi hozirgi o‘zbek tilining namunalari bo‘lgan bu qo‘lyozmalarimni oz bo‘lsa-da, turkiy tillarni bilishga qiziqadigan kishilar e‘tiboriga havola qilaman. Keltirilgan qisman to‘liq, (vengercha) tarjima turkiy tillar tuzilishi bilan ma‘lum darajada tanish bo‘lganlar uchun ma‘lumotnoma vazifasini o‘tashi mumkin. Bundan tashqari, matnlar e‘lon qilinganidan so‘ng qiziqqan o‘quvchilar uchun Xiva-o‘zbek shevasi asoslari haqida qisqacha grammatik ocherk ham ilova qilish niyatidaman. Venger tilidagi asl nusxalarni o‘zbek “libos”ida ko‘rish shu mamlakat tilshunoslari uchun, ayniqsa,

maroqli bo‘ladi, deb o‘yayman”²². “Vamberining o‘zbek hamrohi” maqolasida berilishicha, ushbu satrlar muallifi Vamberining do‘stlaridan bo‘lib, u Mulla Is‘hoqning mojar tilini o‘rganishi hamda akademiya kutubxonasida shug‘ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratib bergan. Mulla Is‘hoq hatto uning yordami bilan buyuk mojar shoiri Shandor Petefining do‘sti, 1865-1879-yillarda Vengriya Fanlar akademiyasining bosh kotibi bo‘lib xizmat qilgan Yanosh Aron (1817-1882) bilan tanishgan va uning “Ajabli (ajoyib)ohuning hikoyati” degan asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asarning mojar kitobxonlari uchun ahamiyatli tomoni shundaki, unda qadimgi mojar va xunnlarning Sharqdan kelib chiqqanligi haqidagi rivoyati tasvirlangan. Bu mavzu Mulla Is‘hoqni g‘oyat qiziqtiribgina qolmay, uning mojar yurtida, bizningcha, bir umr qolib ketishiga ham sabab bo‘lgan.

Vamberi va Budentsning yuqorida keltirilgan so‘zlari asosida uni Vengriyada bir umrga qolib ketgan, deb taxmin qilishimiz mumkin, xolos.

Mulla Is‘hoqning keyingi hayoti va taqdiri to‘g‘risida hozircha boshqa ma‘lumot yo‘q, deya ta‘kidlaydi muallif maqola yakunida.

XX asr boshlarida nashr etilgan gazeta va jurnallar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini varaqlagan kishi jadid ma‘rifatparvarlarining xalqni jahon yozuvchilari ijodi bilan tanishtirishga katta e‘tibor berganlarini ko‘rib, hayratga tushadi. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy inqiroz sharoitida yashayotgan xalqni mudroq holatdan uyg‘otish, unga Erk, Xurriyat, Milliy taraqqiyot degan kadriyatlar borligini eslatish, uni ma‘rifat bo‘stonlari sari yetaklashda maorif va madaniyat darg‘alarining xizmatlari oz emas. Zero, xalqni jahon fani va madaniyati namoyandalari hamda ularning asarlari bilan tanishtirish uning o‘zligini, o‘z haq-huquqlarini anglashiga, ilg‘or insonparvarlik g‘oyalari bilan “qurollanish”iga yordam beruvchi muhim omillardan edi.

Jadid mahrifatparvarlari o‘zbek xalqiga tanishtira boshlagan mashhur yozuvchilardan biri XIX oxiri - XX asr boshlarida jahon miqyosida shuhrat qozongan, yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob bermaslik nazariyasi bilan Rossiya

²² Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013. 288-бет.

tasarrufidagi barcha xalqlarda katta qiziqish uygʻotgan ulugʻ rus adibi Lev Nikolaevich Tolstoy edi.

Maʼlumki, Lev Tolstoyning oʻzbek tiliga tarjima qilingan ilk asari “Odamlar nima bilan tirik?” degan hikoyasidir. 1887-yili “Turkiston viloyatining gazetasi”da eʼlon qilingan bu asar Sattorxon Abdulgʻafforov tomonidan tarjima qilingan. Bu hikoyadan tashqari, 1917-yilga qadar rus adibining 34 ta masal, ertak va hikoyalari oʻzbek tiliga oʻgirilgan. Shu asarlarning aksar qismi rus, tatar va oʻzbek tillarini yaxshi bilgan pedagog va tarjimon Ali Asqar ibn Bayram Kalininning “Muallim ussoniy” oʻquv qoʻllanmasida, yana biri esa Serikboy Okaevning “Xrestomatiya, yaʼni terma kitob”ida nashr etilgan. Tarjima tarixi bilan shugʻullangan olimlarning guvohlik berishlaricha, rus adibining bu kitoblarga kirgan asarlari Ali Asqar Kalinin, Serikboy Okaev va “Xrestomatiya...” muxarriri Ashurali Zoxiriy tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilingan.

Bu masal, ertak va hikoyalar bolalar uchun sodda til bilan yozilgan kichik hajmdagi asarlar edi. Ularning “Koʻr kishi”, “CHol bilan Ajal”, “Taka bilan Tulki”, “Qargʻa bilan Qurbaka”, “Quyvon bilan qurbaqa”, “Boʻri bilan Ayiq”, “Bir yigitning gʻoz oʻgʻilagani”, “Bogʻbon” deb atalishining oʻziyiq oʻzbek xalqining mentalitetiga yaqin didaktik-pandnoma asarlar boʻlganidan darak beradi. Bunday asarlarning nafaqat yangi usuldagi maktab oʻquvchilari, balki ularning ota-onalariga ham manzur boʻlgani shubhasiz. Shuning uchun L.N.Tolstoyning bu va boshqa kichik nasriy asarlari XX asr boshlarida maydonga kelgan boshqa darslik va oʻquv qoʻllanmalaridan ham munosib oʻrin egallagan.

L.N.Tolstoyning oʻzbek tiliga ilk bor oʻgirilgan asarlaridan biri “Xudo haqni koʻraveradi-yu tezda aytavermaydi” degan hikoya edi. Bu hikoya negizida yotgan Parvardigor yer yuzida boʻlayotgan hamma yaxshi va yomon voqealarni koʻrib tursa-da, yomon kishilarni jazolash va yomon voqealarni bartaraf etishga oshiqavermaydi, degan fikr nafaqat keng xalq ommasiga, ayniqsa shu omma ongiga taʼsir oʻtkazib kelgan din arboblari ham gʻoyat yaqin edi. Tolstoy haqida mazkur

tadqiqot ishimizda bunday keng ma'lumot keltirishimizning o'ziga xos sababi bor. Ya'ni, tadqiqot ob'yektimiz bo'lgan "Adabiyot va tarixiy jarayon" kitobining "Turfa taqdirlar" bobida XX asr boshidagi bizga unchalik tanish bo'lmagan millat ma'rifatparvarlarining taqdirlari haqida ozmi-ko'pmi ma'lumotlar berilganini yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. "Lev Tolstoy bilan uchrashgan o'zbek" maqolasida shunday insonlardan biri Abduvohid qori Abduraufqoriev taqdiri haqida faktlarga asoslangan fikrlar keltirilgan.

O'tgan asr boshlarida Turkistonda yashagan din arboblardan biri Abduvoxid qori Abduraufqoriev bo'lib, u rus tilini yaxshi bilgani va Rossiyada kechayotgan ijtimoiy va diniy-ma'rifiy jarayondan xabardor bo'lgani tufayli ulug' rus adibiga nisbatan ayricha munosabatda edi.

Maqolada keltirilishicha, Abduvohid qori Abduraufqoriev 1855-(ayrim manbalarga qaraganda, 1858) yilda Toshkent shahrining Shayxontohur dahasida tug'ilgan. U dastlab eski usuldagi maktabda, keyin 1862-1870 yillarda Eshonquli dodxoh madrasasida ta'lim va tarbiya olgan. So'ngra Buxoroga borib, 1888-yilga qadar Ernazarbiy madrasasida o'qishni davom ettirgan. Toshkentga qaytgach, shahardagi masjid-madrasalarning birida imom-mudarris bo'lib xizmat qilgan.

Abuvohid qori 1906-yili bo'lib o'tgan saylovda Toshkent shahar dumasiga, a'zo etib saylanadi. Oradan bir yil o'tgandan keyin 1907-yili esa, Turkistonga ajratilgan bir o'ringa nomzodi ko'rsatilib, Rossiya Davlat dumasiga ham a'zo bo'ladi. Shu voqeadan bir yil avval, 1906-yilning 13-23 avgust kunlari Nijniy Novgorod shahrida Rossiya musulmonlarining III qurultoyi bo'lib o'tgan edi. Qurultoyda musulmon o'quv yurtlarini qayta qurish va ularga mudirlik qilish vazifasini musulmon ruhoniylari ixtiyoridan olib, jamiyatga havola etish, rus tilini o'qitishni boshlang'ich maktabdan emas, o'rta maktabdan boshlash, ayol o'qituvchi kadrlarni tayyorlash kabi muhim masalalar muhokama qilingan va shu masalalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan edi. Abduvoxid qori shunday tavsiyalar bilan tanishib, Davlat dumasining Peterburgda o'tajak yig'ilishida o'zbek xalqining milliy

manfaati bilan bogʻlik masalalarni oʻrtaga tashlamoqchi boʻladi.

U Peterburgga borib, Rossiya Davlat dumasi yigʻilishida ishtirok etganida, unga soʻz berilganmi yo yoʻqmi, agar berilgan boʻlsa, u oʻzbek xalqi uchun muhim ijtimoiy va huquqiy masalalarni koʻtara olganmi yo yoʻqmi, afsuski, bu bizga qorongʻi, ammo Abduvoxid qori Toshkentga qaytganidan soʻng uning kimgadir yoʻllagan mahfiy xati chor oxrankasining qoʻliga tushib qoladi va shu xat uning 1909-yil 31- yanvar kuni qamoqda olinishga sabab boʻladi. U Toshkent qamoqxonasida bir necha oy yotganidan keyin 1909-yil sentyabr oyi boshlarida Tula gubernyasining Krapivna shahriga 5 yilga surgun qilinadi.

Naim Karimovning, ushbu maqolani yozishdan maqsadi shuki, Abduvoxid qorining buyuk rus adibi L.N.Tolstoy bilan uchrashgani va bu uchrashuvning tarixiy faktlarda qay tarzda muhrlanib qolganini yoritib berish edi. Maqolada keltirilishicha, Abduvoxid qori surgun qilingan Krapivna shahri oʻsha paytda Tula gubernyasidagi kichik shaharchalardan biri boʻlib, undan bir necha chaqirim narida ulugʻ rus adibi L.N. Tolstoy vatani - Yasnaya Polyana kishlogʻi joylashgan edi. Surgun qilingan kishi Krapivna qishlogʻidagi politsiya idorasining ruhsatisiz biror joyga borish huquqiga ega emas edi. Ammo oʻzi yashagan shaharchadan bir necha chaqirim narida ulugʻ rus adibining istiqomat kilayotgani unga tinchlik bermaydi. Abduvoxid qori Tolstoy huzuriga tevarak-jonibdagi koʻplab mujiklarning borib kelayotganlarini koʻrib-eshitib, huzur-halovatini yoʻqotib qoʻyadi. Nihoyat, 1910-yil 24 -sentyabrgʻ kuni u Krapivna shahar politsiya idorasidan ruxsat olib, Yasnaya Polyana tomon yoʻl oladi.

Turkistonlik taniqli din arbobining Lev Tolstoy bilan boʻlib oʻtgan uchrashuvi toʻgʻrisida ahyon-ahyonda respublikamiz gazeta va jurnallarida xabar, maqolalar bosilib turadi. Ammo bu xabar va maqolalar, koʻpincha, mishmishlar asosida yozilganligi sababli ularda bayon qilingan “fakt”larga ishonish qiyinligiga olim alohida urgʻu bergan. Shuning uchun ham Naim Karimov quyida dastlab Abduvoxid qorining farzandi shoir Oltoy (Bois Qoriev)ning 1960-yilda yozilgan “Yasnaya

Polyanadagi uchrashuv” deb nomlangan xotirasini keltirgan: “Otam,- deb yozgan edi Oltoy, - Abduvohid Abduraufqorievning Tolstoy haqida soʻzlab bergan xotiralari hali-hali yodimda. U kishi 1910-yili chor hukumati tomonidan “erkin fikrlash” da ayblanib, Tula gubernyasiga surgun qilingan edi. Otam borib tushgan joy buyuk yozuvchi yashagan Yasnaya Polyanadan uzoq emas ekan, shu sababli u bir kuni Lev Tolstoy bilan uchrashib qoladi.

Tolstoy dala yoʻlida otda ketayotgan ekan, oldidan otam chiqib, salomlashadi. Lev Tolstoy Sharq kishisiga qiziqqan boʻlsa kerak, tanishadilar. Keyin adib otamni qoʻrasiga taklif etadi. Shundan soʻng ular koʻp marta uchrashib, suhbatlashganlar.

Otamning hikoyasiga koʻra, ular koʻpincha madaniyat, xususiy mulk haqida suhbat qilar ekanlar. Suhbatda xususiy mulkning maʼlum bir chegarasi boʻlishi kerak, degan fikr oʻrtaga tushib, ana shu (fikr) ularning ikkovlariga ham maʼqul keladi. Bu esa ularni yana ham yaqinlashtiradi. Tolstoy otam bilan suhbatlashganida, albatta, uning surgun qilinish sabablari bilan qiziqqan, unga dalda bergan. U hatto otamning Tula shahrida bemalol yurishi uchun ruhsat qogʻozi olib bergan.

— Tolstoy, - derdi otam, - musulmonlar hayoti, ahloqiy anʼanalari bilan koʻp qiziqardi. Men unga fors tilida Shayx Saʼdiy gʻazallaridan oʻqib berardim, maʼnosini esa soʻzma-soʻz tarjima qilib tushuntirardim. Tolstoy juda oʻtkir aqlli, buyuk inson edi.

Lev Nikolaevich ”uchrashuv esdaligi”, deb otamga oʻz rasmini dastxat bilan taqdim qilgan ekan. Afsuski, bu surʼat saqlanmagan.

Tolstoy bilan otam oʻrtasidagi munosabatlar yozuvchining shaxsiy sekretari V. F.Bulgakovning “L.N. Tolstoy hayotining soʻnggi yillari” degan kitobida ham eslanadi. “U mulla odam ekan, - deb yozadi Bulgakov, - lekin gʻoyat siyosatchi, butun borligʻi bilan siyosatga berilib ketgan ekan. Tolstoy unga negadir Abdulhakim deb murojaat qilar edi”.

Otamning: “Tolstoy asarlarini sevinglar, ularni qayta-qayta oʻqinglar, degan soʻzlari hech qachon yodimdan chiqmaydi. U surgundan qaytganidan keyin koʻrgani

kelgan kishilarga ulug‘ yozuvchi haqida(gi) xotiralarini faxr va quvonch bilan so‘zlab berardi. Uning hikoyalari tinglovchilarning buyuk yozuvchiga mehr-muhabbatlarini oshirardi.

Charizm zulmi juda avj olgan yillarda buyuk yozuvchining otamdek chorasiz bir kishiga iltifot qilganligi Tolstoyning naqadar katta qalb egasi bo‘lganligidan yana bir dalolatdir”. Oltoy (Bois Qoriev) ijod ahlidan bo‘lganligi tufayli otasining L.N.Tolstoy bilan uchrashuvi hakidagi xotirasini asosan to‘g‘ri, biror ortiqcha buyoq-bezaksiz qog‘ozga tushirgan. Biz ushbu faslimizda maqolada keltirilgan xotiralarni to‘liq berishimizdan maqsad shuki, N.Karimov hujjat bilan ishlashni yoqtiradi, uning xulosalari ham ehtiroslar ta’siri emas, balki mana shu hujjatli asosning natijasi ekanligini ko‘rsatib berishdir.

Har bir inson turli omillar asosida shakllanadi. Shu omillar orasida eng muhimi, shubhasiz, tarixiy davr, shu davrdagi ijtimoiy-madaniy sharoitdir. Shunday sharoitda shakllangan kishilar esa uch toifaga bo‘linadi. Birinchi toifa vakillari davr bilan hamqadam yuradi har holda ular o‘zlarini shunday deb hisoblaydilar. Ikkinchi toifa vakillari davrdan bir necha qadam orqada harakat qiladi; ularning bir qismi hatto o‘tgan davr havosi bilan nafas oladi va o‘sha davr mezonlari bilan yashaydi. Yana bir toifa kishilar borki, ular davrdan bir qadam bo‘lsa-da, oldinda boradi. Ular ozchilikni tashkil etadi. Shuning uchun ham davr ularni oson-garov yutib yuboradi. Davrdek xudbin va o‘z harakatida kat’iy boshqa bir tarixiy hodisa yo‘q. U o‘zidan ildamroq kishilar bilan murosa qilolmaydi. U bunday kishilarni birinchi va ikkinchi guruh vakillarining qo‘li bilan bo‘g‘adi.

Holbuki, jamiyat taraqqiyoti va, umuman, insoniyat taraqqiyoti xuddi shunday kishilar faoliyati bilan bog‘liq. Tarix ularni yangi kelayotgan davrning elchilari sifatida yaratadi va yangi davr yaqinlasha boshlashi bilan ular, poloponlarni dunyoga keltirib, hayotdan ko‘z yumadigan jonivorlar singari halok bo‘ladilar. XX asrda o‘zbek xalqi insoniyat tarixiga shunday kishilardan bir qanchasini berdi. Shulardan biri, menimcha, Saidnosir Mirjalil o‘g‘lidir. “Turfa taqdirilar”bobida taqdim

qilingan maqolalardan yana birisi “Hayotning ma’nosi” deb nomlangan bo‘lib, millatparvar inson, o‘zbek xalqi uchun birinchi kimyogar olim ayol Zarifa Saidnosirovadek farzandni tarbiyalab bergan Saidnosir Mirjalilov haqidadir. Naim Karimov ushbu maqolada Saidnosir Mirjalilov millat ravnaqi uchun butun boridan kechib bo‘lsa ham faoliyat olib borganini, hattoki, Oybekning "Navoiy" romanini yozish jarayonida qaynotasi to‘plagan nodir manbalardan foydalangani va bu mangu barhayot asarning paydo bo‘lishida Saidnosir Mirjalil o‘g‘lining ham kichik bir hissasi borligini alohida ta’kidlagan. To‘g‘ri, surgundan qaytgan qaynotani qabul qilgani va u bilan bir uyda yashagani uchun Oybekning boshida dam ko‘p yong‘oq chaqilgan. Ammo quyosh qoraymasligini yaxshi bilgan yozuvchimiz qaynotasi bilan haqli ravishda faxrlanar, hatto Saidnosirboy surgunda yashaganida unga sevgi va hurmat tuyg‘ulari bilan to‘la she’rlar ham yo‘llagan edi. Olimning ta’kidicha, Oybek uning nomi kelajakda kamalakdek beg‘ubor nurlar taratishga astoydil ishongan edi.

“Hayotning ma’nosi” maqolasida muallif shunday yozadi: “Uning maqsadi tadbirkorlik orqasidan sarmoya yaratib, bu sarmoyani bo‘ljak mustaqil o‘zbek davlatining poydevori qurilishiga sarflash bo‘lgan. U o‘z davridan ilg‘orlab ketgan Munavarqori, Ubaydulla Xo‘jaev, Cho‘lponlar bilan bir safda turib, o‘zbek xalqini mustaqillik uchun kurash maydoniga olib chiqishga, uning shuuriga Vatan va Millat, Erk va Ma’rifat singari boqiy qadriyatlarga hurmat va sadoqat tuyg‘ularini payvand qilishga intildi.

Siz kimsiz, Saidnosir afandi? Nahotki, faqat savdogar, tadbirkor va menejer bo‘lgan bo‘lsangiz? Jadid maktabini ochgan, paxta tozalash zavodini barpo etgan, Turkistonda elektr chirog‘ini ilk bor yoqqan, Toshkentda tadbirkorlik va ma’rifatparvarlik faoliyatini o‘zaro qo‘shib olib borgan, Turkiston Muxtoriyat hukumatining xazinachisi sifatida erk va hurriyat yo‘lida kurash olib borgan, Muxtoriyat qonga botirilgach, Behbudiy bilan birga Antanta davlatlari raxbarlari bilan uchrashib, ular yordamida mustamlakachilik kishanlarini parchalab tashlamoqchi bo‘lgan, shirkat ochib, yosh yigit va qizlarning Germaniya,

Turkiyaga borib o‘qishlariga bosh qo‘shgan, “Nashri maorif” jamiyatini tashkil etib, noyob qo‘lyozma va toshbosma kitoblarni to‘plash va saqlab qolishga intilgan kishi, nahotki, faqat savdogar deb atalsa?!

Yo‘q, Siz XX asr boshlarida Turkistondagi milliy istiqlol va taraqqiyot uchun kurash boshida turgan fidoyi insonlardan birisiz. Agar Sizdek va Sizning do‘stlaringizdek fidoyi insonlar bo‘lmaganida, mustamlaka zanjirlarining parchalanishi, jamiyatning yangilanishi, toza va hayotbaxsh havoning erksevar kishilar vujudiga kirib kelishi malol edi. Sizdek va sizning do‘stlaringizdek kishilar tufayli kurashning safosi, fidoyilikning jafosi va hayotning ma‘nosi avlodlar tomonidan kashf etib boriladi”. Biz ushbu faslimizda maqolada keltirilgan muallif fikrlarini to‘liq berishimizdan maqsad shuki, N.Karimov hujjat bilan ishlashni yoqtiradi, uning xulosalari ham ehtiroslar ta’siri emas, balki mana shu hujjatli asosning natijasi ekanligini ko‘rsatib berishdir.

Olimning tarix qatida yotgan adabiy haqiqatlarni yuzaga chiqarish maqsadida amalga oshirgan ixcham tadqiqotlari alohida e’tiborli. Nafaqat tarixiy silsila, xronologiya nuqtai nazaridan, balki ulug‘ o‘tmishdoshlarimiz qismatiga adabiy-ilmiy munosabat nuqtai nazaridan ham ayni holat muhimdir.

2.2. “Musibat dostonlari” turkumining qatag‘on qurbonlari taqdirini o‘rganishdagi ahamiyati

“Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobidagi “Musibat dostonlari” turkumiga “Shohimardonning qora bahori”, “Narkompros ishi”, “Botir gapchilar”, “Cho‘lpon uchun kishan”, “Assalom alaykum, dorning og‘ochi”, “Apresyanga yangi yil sovg‘asi” va “Navbat Oybek va Shayxzodaga. Keyingisi kim?” kabi maqolari kiritilgan bo‘lib, mazkur maqolalarida olim millatimiz ravnaqi uchun jon fido qilgan ulug‘ insonlarning taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim qilgan. Shuni alohida ta’kidlashni istardikki, ushbu maqolalarda keltirilgan ma’lumotlar boshqa manbalarda uchramaydi va Hamza, Cho‘lpon, Oybek,

Shayxzodalar hayoti, taqdiridan avlodlarni boxabar qilishligi bilan ahamiyatlidir. Sovet davlati o'zining dastlabki kunidan so'nggi nafasiga qadar xalqlar orzu qilgan shunday ilg'or va demokratik davlat ekanini aytishdan charchamadi. Ammo u amalga oshirgan qaysi katta yo kichik tadbirlarga qaramang, bu tadbirlar yer-suv islohotimi, jamoalashtirishmi, Sibir va Uzoq Sharqdagi yer usti va yer osti boyliklarini o'zlashtirishmi, sanoat gigantlarini barpo etish yoki paxta maydonlarini kengaytirib, mo'l hosil olish uchun kurashmi... - bu tadbirlardan biror xalq sog'omon chiqmagan. Sovet davlati tasarrufida birorta xalq bo'lmadiki, uning millatparvar, taraqqiyparvar, fidoyi farzandlari "aksilinqilobchilar" yoki "xalq dushmanlari" degan ayb bilan otib tashlangan yoki shu qurilishlarda ochlik, kasallik va sovuqdan qirilib ketgan bo'lmasin...

Yana bir daxshatli narsa shundaki, davlat adabiyot va san'at ahliga nima haqida qachon va qanday yozish kerakligini muntazam ravishda o'rgatib, ularga "sinfiylik", "partiyaviylik", "zamonaviylik" degan andozalarni berib turdi. Adabiyot va san'at sho'ro davrida jiddiy siquv va tazyik ostida yashadi. Kimki shu andozalardan bir oz chetga chiqib, erkin fikrlaydigan, hayot haqidagi haqiqat zarralarini ro'yobga chiqaradigan bo'lsa, u qamoqxonalarga, lagerlarga - sovet davlatining jahannamlariga tashlandi.

Holbuki, chor mustamlakachiligi yillarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Elbek, Tavallo, G'ulom Zafariy singari, sovet davrida esa G'afur G'ulom, Oybek, Xamid Olimjon, SHayxzoda, Mirtemir, Usmon Nosir kabi katta iste'dod sohiblari maydonga kelgan va ular uzoq, yashab, o'zbek adabiyoti xazinasini mumtoz asarlar bilan ko'proq boyitishlari, ularning hammasi bo'lmasa ham, ayrimlari XX asr jahon adabiyotining mashhur namoyandalari qatoridan munosib o'rin egallashlari mumkin edi. Afsuski, sovet davlatining adabiy-madaniy siyosati va tarixiy jarayon bunga imkon bermadi.

Istiqlol arafasi va mustaqillik davriga kelib, Naim Karimovning Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Hamza, Usmon Nosir kabi yozuvchilar

hayoti va ijodi haqida tom ma'nodagi yangi maqolalari, risolalaridan tashqari, XX asr tongi va 20-yillardagi jadidchilik harakati va jadid adabiyotining tug'ilish, rivojlanish yo'llarini o'rganishi natijasi o'laroq yuzaga kelgan. "XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyat va jadidchilik harakatining vujudga kelishi" singari tadqiqot va maqolalari ayricha vaznga ega. Buning uchun muallifga oylab, yillab O'zbekiston Markaziy Davlat arxivida, Davlat xavfsizlik xizmati, prezident devoni va Yozuvchilar uyushmasi arxivlarida sobiq Ittifoq hududida joylashgan qator maxfiy arxivlarda ishlashga to'g'ri keldi. Olimning arxivdagi izlanishlari natijasi o'laroq maydonga kelayotgan Abdulla Avloniy, Botu, Abdulla Alaviy, Vadud Mahmud, Raxmatullo Sulstonov, Said Ahroriy, Saidnosir Mirjalolov singari 20-30- yillar adabiy – madaniy muhitida faol o'rin tutgan istiqlol qurbonlari haqidagi maqolalari adabiyotimiz, madaniyatimiz, istiqlolimiz uchun kurash tarixining yangi- yangi sahifalarini ochadi.

Bundan tashqari olimning "Shohimardonning qora bahori", "Narkompros ishi", "Botir gapchilar", "Cho'lpon uchun kishan", "Assalom aleykum, dorning og'ochi", "Apresyanga yangi yil sovg'asi" va "Navbat Oybek va Shayxzodaga. Keyingisi kim?"²³ singari jiddiy tadqiqotlari bosildi. Ularda muallif Hamza, Nosir Saidov, Cho'lpon, Oybek, Maqsud Shayxzoda, kabi atoqli olim, shoir va adiblarning mazkur davr adabiyoti va fani rivojiga qo'shgan hissalarini, tuhmat va zug'umlar ostida kechirgan og'ir, fojeali hayotlarini boy arxiv materiallari asosida yoritib berdi. Jumladan, "Norkompros ishi" maqolasida Munavvarqori Abdurashidxonov, Botu, Ashurali Zohiriy, Nosir Saidovdek bir qancha o'zbek ma'rifatparvarlarining turli ig'vo-yu bo'xtonlar tufayli begunoh qurbon bo'lganliklarini dalillar bilan asoslab beradi. "Adabiyot va tarixiy jarayon" kitobidagi "Musibat dostonlari" turkumiga kiritilgan "Norkompros ishi" nomli maqolasidan parcha keltiramiz: ".....Xullas, 1933-yil 31-mart kuni yakunlangan sud qaroriga ko'ra, Mahmud Botu, Nosir Saidov, Mannon Ramziy, Sobir Qodirov, Bois Qoriev, Hosil Vosilov, Xayrullaxon Alaviy, Qayumxo'ja Aliev,

²³Каримов Н. Адабиёт ва тарихий жараён. Тошкент. "Мумтоз сўз". 2013.337-бет.

Qamchinbek Abdullaev o‘lim jazosiga hukm etilgan va shu sud majlisining o‘zidayoq bu jazo 10 yillik qamoq muddati bilan almashtirilgan; Lutfulla Alaviy 10 yilga, Maqsud Vohidov, Saidahmad Nazirov, Usmon Salimov, Raxim Shokirbekov va Botir G‘ulomov 5 yilga, Fatxiddin Alimov esa 3 yilga qamoq yoki surgunga hukm etilgan. Bu qamalgan ma‘rifchilarning aksar qismi garchand muddatidan oldin ozod etilgan bo‘lsa-da, 1937 yilda, ba‘zilari esa 40-yillarda ham qayta-qayta terib olinib, oxiri otib tashlandi yo jazo muddatini o‘tagan joylarda bir umrga qolib ketdi”.²⁴ Ko‘rinib turibdiki, mazkur maqolada ham oldin bizga nomlari unchalik ma‘lum bo‘lmagan, lekin o‘z hayoti va faoliyatlari davomida ma‘rifatparvarlik bilan shug‘ullangan chin ma‘nodagi insonlarning ayanchli qismatini yoritib bergan.

Naim Karimov ijodining keyingi bosqichidagi o‘ziga xos xususiyatlardan birini jadidchilik davri adabiyotining kam yoritilgan jihatlariga alohida e‘tibor berish; o‘zbek adiblari hayoti va ijodi hamda asarlaridagi yarim qorong‘u bo‘lib kelayotgan sahifalarni qatag‘on davri bilan mustahkamlab, aloqadorlikda yoritish kabilar tashkil etadi. Aytish joizki, muallifning shu yo‘nalishda “O‘zbek adabiyoti jallodlari”, “Norkompros ishi”, “Apresyanga yangi yil sovg‘asi”, “Cho‘lpon uchun kishan”, “Assalomu alaykum dorning og‘ochi”²⁵ singari maqolalarning asosini o‘sha davr vaqtlari matbuotidagi ma‘lumotlardan tashqari turli davlat va shaxsiy arxivlarda saqlanib kelayotgan hujjatlar, yozishmalar, xotiralar tashkil etishi qimmatlidir.

Istiqlol davri Naim Karimovning yangi-yangi imkoniyatlarini namoyon etdi. Uning gazeta va jurnallarda e‘lon qilingan turkum maqolalarida davr adabiy-tanqidiy tafakkurining yangi, yetakchi tamoyillari o‘z ifodasini topdi. Ikkinchi tomondan, ular yangi bosqichdagi o‘zbek adabiyotshunosligi tamoyillarini o‘zida ifoda etdi. Uchinchidan, bu tamoyillar o‘zbek adabiyotshunosligi yangi metodologiyasi shakllana boshlashida muhim rol o‘ynadi. Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shjonov, Umarali Normatov, Erik

²⁴ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013. 310-бет

²⁵ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013. 312-бет

Karimov, Begali Qosimov, A Aliyev, Sherali Turdiyev kabi olimlarning yangi tipdagi maqolalari bilan birga Naim Karimovning bunday maqolalari misolida o‘zbek adabiyotshunosligi bu davrga kelib, XX asr adabiyotiga munosabatda yangi yo‘nalish ola boshlaganini ko‘rsatdi. Uning “Bir adabiy qalloblik tarixi”, “O‘zbek adabiyoti jallodlari”, “Hamza Toshkentda”, “Hamzani kim o‘ldirgan yoxud Shohimardonning qora bahori”, “Alpomishning qatl etilishi”, “Qutlug‘ qon”ning yaratilishi”, “Na oltin, na javohir edim...”, “Bitta o‘zim bilaman...”, “O‘zbek kinosining qaldirg‘ochi” singari maqolalari ana shunday ishlar sirasiga kiradi. Bu maqolalardagi havosi o‘ta dimiqqan xonadan ochiq havoga birdan chiqqandagi xapqirib qolishdek holatni eslatuvchi ayrim fikrlar, mulohazalar, nuqtai nazar yoxud dalilga munosabat bilan bahslashish yoki kelishmaslik mumkindir. Lekin, sho‘rolarga ma‘qul kelmovchi adabiyotning qatag‘on qilinish davri tugaganidan mujda beruvchi, adiblar va adabiyotimizni kishanga solib kelgan omillarni ro‘yi-rost ko‘rsatuvchi, sho‘ro davri adabiy hayotidagi ayrim yolg‘onchilikni dadil ochib tashlavchi, buning uchun, hatto, shunday yangi zamonlarda ham ba‘zan haqiqatni, adolatni yurak yutib, jur‘at bilan ayta olish xuddi shu xildagi maqolalar bilan boshlanganini va ular tanqidiy tafakkurimiz kelajagini yoritishga xizmat qilajagini e‘tirof etmaslik mumkin emas.

Olim o‘z ijodining mustaqillik yillaridagi bosqichida “O‘zbek ziyolilarining jallodlari” maqolalar turkumini yaratdi. Uning o‘zi bu haqda shunday deydi: ”Men so‘nggi o‘n yillikda nima yozgan bo‘lsam, shularning hammasiga, xudo xohlasa, yana qaytaman, degan niyatda bo‘lganman. Oybek to‘g‘risidagi kitoblarimning bir qismi adib yubileyi tufayli shoshib yozilgandi. So‘ngi ikki-uch yil ichida yozgan maqolalarim esa oshkoralik davri taqozosi bilan yuzaga keldi. Sovet hokimiyati tarixida ilk bor hujjatxonalarda saqlanayotgan mungli tariximizning ba‘zi bir sahifalari bilan tanishish imkoniyati paydo bo‘ldi. 30-yillar to‘g‘risidagi haqiqatning yuzaga chiqishi Mustaqil O‘zbekiston oldida

turgan vazifalarni aniqlab olishimizga bir qadar yordam beradi”.²⁶

Bu turkumga kiruvchi asosiy maqolalar 1991-1992 yillari “Fan va turmush” jurnalida e’lon qilingan edi. Jasorat bilan yozilgan bu maqolalar keng jamoatchilik diqqatini tortdi. Chunki keyingi yillarda qatag’on davri haqida talay asarlari, she’rlar, dostonlar, qissa va hikoyalar, romanlar yozildi. Ammo shunga qaramay, o’sha mash’um davrni butun fojealari bilan to’lib-toshgan manzaralarni aks ettiruvchi asarlar yetishmayotganligi ko’rinib turar edi.

Adabiyotshunos Pirmat Shermuhammedov olim tavalludining 60 yilligi munosabati bilan “Mudhish davrlar haqiqati” nomli maqolasida shunday yozadi: “Har birimiz yurak yutib o’ylaymiz: Abdulla Qodiriy, Cho’lpon, Elbek, Fitrat singari madaniyatimiz arboblarning suyaklari qayerlarda chirib yotibdi? Cho’lpon qayerda va qachon otilgan? Abdulla Qodiriy hayotining so’nggi kunlari haqida biz nimalarni bilamiz? Uning 2060 varaqdan iborat qo’lyozmasi, ikki yon daftari, 217 sahifadan iborat yozishmalarning taqdiri ne bo’lgan? Ularni NKVD ning zax qamoqxonalari yotishga majbur qilgan xoinlarning nomlarini aniq bilamizmi?”.²⁷ Olimning kuyunib aytgan bu so’zlarini Naim Karimovning quyidagi fikrlari yanada to’ldiradi: “Men soddaligi nodonlik bilan ulanib ketadigan xalqimizdan o’pkalagim keladi, 1937-yilda uyushib Cho’lponlarni, Qodiriylarni, Fitratlarni himoya qilish mahol edi. Ammo juda bo’lmasa, Abdulla Qodiriyga ixlos qo’ygan kishilar 1937-yil kallakesarlaridan omon qolgan mo’tabar qo’lyozmalarni saqlab qolishi mumkin edi-ku!” – deb yozadi u “Apresyanga yangi yil sovg’asi”²⁸ deb nomlangan maqolasida.

Bu so’zlar qanchalik achchiq bo’lmasin, ammo, chin yurakdan samimiy aytilganini inkor etish mumkin emas.

Maqolada munaqqid totalitar tuzum mashinasining shavqatsiz va berahm hodimlari xatti-harakatlarini ijodkorga xos sinchkovlik bilan kuzatar ekan, ular ruhiyatidagi tuban holatlarni ochib berishga harakat qiladi. O’quvchi ko’z oldida

²⁶Каримов Н. Ойбек: Тош экан бу бошим... (Ўзбек адабиёти туркумидан) // Fan va turmush. 1992, №9-10

²⁷ Шермухаммедов П. Мудхш даврлар ҳақиқати. // Тошкент оқшоми. 1988 №4

²⁸ Каримов Н. Адабиёт ва тарихий жараён. “Apresyanga yangi yil sovg’asi”.-Т.: “Мумтоз сўз”. 2013.373-бет.

o‘ttiz yettinchi yilning qora bulutlarga to‘la osmoni-yu, unda uchib yurgan kalxatlarning niqoblangan yovuz basharalari aniq gavdalanadi:

“1937-yil Apresyan boshchiligidagi jallodlarning biti to‘kilgan yil bo‘ldi. Hamma bo‘limlar rejani ortig‘i bilan bajarib, oddiy kaltakbozdan Apresyanga qadar bo‘lgan hamma xodimlar, yorliqlar, hukumatning nishonlari va qimmatbaho mukofotlari bilan taqdirlandi. IIHQga o‘rnashib olgan yozuvlarning armoni qolmadi. Kuni kecha minbarlardan turib ma’ruza qilgan davlat arboblari, kitoblari xalq tomonidan sevib o‘qilgan yozuvchilar, mana-man degan olimlarni xohlagancha haqoratlash, chalajon bo‘lguncha do‘pposlash, besh –o‘n sutkalab uxlatmay, tik oyoq qilib qo‘yish...Mana 1937 yil ham tugadi. Ertaga Yangi yil. Uyiga motam aralashmaganlar bir oila Yangi yil taraddudida. Faqat IIHQ xodimlari quturgan itdek hali ham tinchimagan. Atabekov “shonli” 1938 yilni shunchaki kutmoqchi emas. U shunday qilsinki, Hamtovog‘i Apresyan “Ofarin” desin. Ha, u hamtovog‘ini xursand qildi. Va’dasining ustidan chiqdi. Yangi yilga o‘tar kechasi barcha turkiyzabon xalqlarning ardoqli adibi bo‘lmish Abdulla Qodiriyni hibsga olib, Mahbusxonaga tashladi”.²⁹

Ko‘rinib turibdiki, muallif hujjatlarning bayonchisiga aylanib qolmaydi. Ulardagi haqiqatga putur yetkazmagan holda, badiiylik bo‘yoqlariga erk beradi, ayrim o‘rinlarda ichki kechinmalar aniq va tiniq tasvirlanadi, bular o‘z navbatida asar qimmatini oshiradi.

“Tadqiqot haqiqati” maqolasining muallifi Ismoil To‘lak munaqqidning shu ruhdagi maqolalari bosilib chiqqandan keyin ayrimlarning oradan ellik yil o‘tgach, bunday maqolalarni yozib, adadini yangilash, ba’zi ijodkorlarni obro‘sizlantirish shartmi degan e’tirozlarga quyidagicha javob beradi: “O‘ttiz yettinchi yilda qatag‘on qilinganlar haqidagi maqolalar ularni ayblab ko‘rsatma berganlarning qo‘rqoq qalblarini ochish uchun emas, balki barchamizdan, hatto zamonlardan ham yuksakroq turadigan haqiqat uchun yozilgan. Qolaversa, bu

²⁹Каримов Н. Адабиёт ва тарихий жараён. “Аpresyanga yangi yil sovg‘asi”.-Т.: “Мумтоз сўз”. 2013.373-бет.

maqolalar kelajak avlod uchun yozilgan. Qachonki, bir vaqtga kelib o‘zlarining vaqtincha oromini ko‘zlab, do‘stlarini sotmasinlar, haqiqatning yuziga oyoq qo‘ymasinlar...”³⁰ Ha, bu maqolalarning har bir so‘zi kelajakni ogoh etadi.

Maqola muallifining bu haq so‘zlariga qo‘shilmay iloj yo‘q. Kelajak avlod ajdodlarning achchiq taqdiridan boxabar bo‘lish bilan birga ularning xatolarini takrorlamaslik uchun ham bunday maqolalar zarur. Buning uchun qorong‘i arxivlarda hujjat titkilab, haqiqatni yuzaga chiqarish uchun tinmay mehnat qilgan munaqqidni olqishlash kerak, xolos.

Maqolalarning har biri alohida ijodkor qismatiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, ichki mantiqiy fikr ularni chambarchas bog‘lab turadi. Bu bilan Naim Karimov sho‘ro davri adabiyotining ilk vakillar boshiga tushgan qora kunlardan vorislar ham benasib qolmaganligini (Oybek: “Tosh ekan boshim...”)³¹ ta’kidlaydi.

Pirmat Shermuhammedov yuqorida tilga olingan maqolasida ana shunday dalil keltiradi: “1990-yilning noyabr oylari. “Yosh leninchi”(Hozirgi Turkiston”) gazetasida Naim Karimovning Usmon Nosir fojeali hayoti haqida hikoya qiluvchi “Ajdah komida” deb nomlangan va hujjatlar asosida yozilgan maqolasining parchalari birin-ketin e’lon qilinayotgan paytlar. Bu maqola olqishlarga sazovor bo‘ldi. Ammo ayrim odamlar Naim Karimov sha’niga bo‘lar – bo‘lmas gaplar tarqatish yo‘liga o‘tib olishdi. Lekin olim bunday gap-so‘zlar oldida dovdirab qolmadi. Aksincha, “O‘zbek ziyolilarining jallodlari” turkumiga kiruvchi maqolalarini yozishda davom etdi”.³² Haqiqatdan ham, keyingi yillar ichida olimning turli xil ma’muriy idoralar hamda jamoatchilik tashkilotlarining arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar asosida “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobining “Musibat dostonlari” turkumini tashkil etuvchi olimning “Shohimardonning qora bahori”, “Narkompros ishi”, “Botir gapchilar”, “Cho‘lpon

³⁰ Каримов Н. Ойбек: “Тош екан бошим” // Фан ва турмуш. 1992, №9 -10

³¹ Каримов Н. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т.: “Мумтоз сўз”. 2013.396-бет.

³² Шермухаммедов П. Мудхиш даврлар ҳақиқати. // Тошкент оқшоми. 1988 №4

uchun kishan”, “Assalom alaykum, dorning og‘ochi”, “Apresyanga yangi yil sovg‘asi” va “Navbat Oybek va Shayxzodaga. Keyingisi kim?” “Alpomish”ning qatliom etilishi” singari o‘tkir ruhda yozilgan maqolalari Naim Karimovning fidoyi, vatanparvar, shu bilan birga jonkuyar olim sifatidagi qiyofasini namoyon etadi.

Shu jihatdan “Alpomish”ning qatliom etilishi” maqolasi ham e‘tiborlidir. Bu maqola yuqoridagi turkumning mantiqiy davomi bo‘lib, unda XX asrning 50-yillari ilm olamidagi ojizliklar-u, uning madaniyatimiz tarixiga ko‘rsatgan oshkora va pinxona zararlari ochib beriladi.

Ta‘bir joiz bo‘lsa, olim, hech shubhasiz, “Musibat dostonlari” deb nomlangan turkum maqolalari bilan madaniyatimiz tarixining kemtik sahifalarini adolat nurlari bilan nurlantirib yubordi.

Umuman, so‘nggi o‘n yil ichida qatag‘on qurbonlarining nomlarini abadiylashtirish yo‘lida olib borayotgan fidoyi mehnatlari, bu yo‘nalishda e‘lon qilinayotgan qator publitsistik maqolalari, uning rahbarligida tayyorlanib, chop etilayotgan shaxidlar xotirasiga bag‘ishlangan “Surgun”, “Repressiya” singari kitoblar - bu olim va jamoat arbobining faoliyati havas qilarli darajada jo‘shqin va serunum kechayotganidan dalolat beradi. Bu mehnatga davlatimiz va hukumatimiz munosib e‘tibor berayotgani ham, ayniqsa, quvonarli. Naim Karimovning O‘zbekiston Resublikasi fan arbobi faxriy unvoni hamda, “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlanishi, shuningdek Naim Karimovga akademik unvonining berilishi mustaqillik davrida ziyolilarga ko‘rsatilayotgan yuksak e‘tiborning yorqin dalilidir.

2.3. “Zulmat qo‘ynidagi yulduzlar” bobining ijodkorlar taqdirini anglashdagi ahamiyati

“Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobining “Zulmat qo‘ynidagi yulduzlar” turkumining ijodkorlar taqdirini anglashdagi ahamiyati kattadir. Mazkur turkumga

Safo Mug‘anniy, Lutfilla Olimiy, Naim Said, Mo‘min Usmonov, Sobira Xoldorova, A‘zam Ayub, Muhammad Hasanov, Otajon Hoshim, Rahmat Majidiy, Yunus Latif va Asil Mansurlarning millat oldidagi qilgan xayrli ishlari yoritib berilgan.

“Xorazm bulbuli”³³ maqolasi shoir, hofiz va bastakor Safo Ollobergan o‘g‘li Mug‘anniy taqdiriga bag‘ishlangan.

Inson xotirasi shunday g‘aroyib mo‘jizaki, biz shu mo‘jiza tufayli bundan necha yillar avval o‘tgan kishilar va voqealarni, qariyb xuddi kuni kecha ko‘rgan yoki guvohi bo‘lgandek, ko‘z oldimizga yaqqol keltiramiz. Ammo shu bilan birga xotiraning o‘ziga xos antiqa tomoni ham bor. Masalan, «qatag‘on» deganimizda, bepoyon Sibir lagerlarida azob chekkan minglab mahbuslar emas, balki, eng avvalo, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va Fitratlar ko‘z oldimizda jonlanib ketadi. Buning boisi shundaki, bu o‘lmas siymolar allaqachon qatag‘on etilgan xalqning timsollariga aylanishgan. Bu timsollarning orqasida esa yuzlab, minglab, balki millionlab jabrdiydalar borligi oydek ravshan. Shunday jabrdiydalardan biri «Xorazm bulbuli» — shoir, hofiz va bastakor Safo Ollobergan o‘g‘li Mug‘anniydir.

“Xorazm bulbuli” maqolasida ma‘lumot berilishicha, Safo Mug‘anniy 1882- yili Xivada tug‘ilgan. Xorazm ahli qo‘shiq va raqs san‘atiga alohida mehri bo‘lganligi bois u ham yoshlik kezlaridanok san‘atga shaydo bo‘lgan-qolgan. Safoning yoshlarga xos bo‘lmagan mahorat bilan soz chalib, qo‘shiq, aytganini ko‘rgan zamondoshlari unga qo‘shiqchilik san‘ati yo‘lidan ketishni, o‘sha davrdagi ustoz san‘atkorlarga shogird tushishni maslahat berganlar. Safo zamondoshlarining shu taklif va maslahatlarini e‘tiborga olib, o‘z davrining taniqli sozchi va hofizlaridan saboq oldi. Uning mashhur ma‘rifatparvar shoir, musiqashunos va bastakor Komil Xorazmiy bilan ustoz-shogird tutinishi keyingi ijodiy hayotiga, ayniqsa, katta ta‘sir o‘tkazdi. Yosh san‘atkorning ustozdan olgan eng muhim sabog‘i bunday bo‘ldi: san‘at yo‘liga kirgan har bir kishi, agar ustozlari soyasida qolib ketishni istamasa, san‘atga ijodkor sifatida yondashishi, o‘zi ham yangi kuylarni yaratishi va bordi-yu dilida

³³ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013. 389-бет

aytmoqchi bo'lgan katta gapi, armon-orzulari bo'lsa, qo'shiq matnini she'rni ham o'zi yozishi lozim. Ana shu yaratuvchilik tuyg'usi Safoning qalbiga begona emas edi. U sekin-asta she'riyat tulporini ham jilovlashga intilib, g'azallar bita boshladi. Ammo u o'zining asosiy ijod olami musiqa olami ekaniga amin bo'lgani va she'riyat maydoniga shoir sifatida emas, balki sozanda va xonanda sifatida, musiqa olamining vakili sifatida kirgan hisoblab, o'ziga «Mug'anniy» tahallusini tanlab oladi. Naim Karimovning ta'kidlashicha, Safo Mug'anniy shunday bir davrda yashadiki, bu davr Xorazm madaniyati tarixida Bayoniy, Faqiriy, Mutrib, Chokar, Devoniy singari qator iste'dodli shoirlar, Sheroziy singari xofiz va san'atkorlar, yulduzlar shodasi o'laroq baravar paydo bo'lib, o'z ijodlari bilan xalqni bahramand etganlar. Ular bilan bir davrda yashash va ijod etish, ular bilan musobaqaga kirishishdek bir gap edi. Ular o'zaro yig'inlarda, to'y-u marakalarda o'z san'atlarini namoyish etish bilan birga kimdandir ilgarilab borayotganlari yoki kimdandir orqada qolayotganlarini sezib, o'z ijodlarini yangi va yuksak bosqichga olib chiqishga harakat qilganlar. Shunday ijodiy bahslarning natijasi o'laroq, Safo Mug'anniy tez orada nafaqat sozchi va hofiz, balki shoir sifatida ham el-yurt hurmatini qozona boshladi.

Muallifning alohida urg'u berishicha, Safo Mug'anniy kabi Xorazm shoirlarining shakllanishi sovet davriga to'g'ri keldi. Binobarin, ulardan yangi hayot, yangi davr g'oyalarini tarannum etuvchi she'rlarni yozish talab etildi. Shu tufayli ularning, shu jumladan, S.Mug'anniyning Xorazm inqilobiga qadar yozgan g'azallari e'tiborsizlik orqasida yo'qoldi. Holbuki, Safo Mug'anniyga el-yurt o'rtasida katta shuhrat keltirgan narsa uning umrboqiy mavzulardagi g'azallari edi. Shu tufayli u nafis yig'ilishlarga, to'y-u tomoshalarga tinimsiz taklif etilar edi.

Yuqorida keltirganimizdek, Naim Karimov hujjat bilan ishlashni yoqtiradi, uning xulosalari ham ehtiroslar ta'siri emas, balki mana shu hujjatli asosning natijasi ekanligini ko'rsatib beradi. "Xorazm bulbuli" maqolasida olim Hamzaning O'zbekistan Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi arxivida

saqlanayotgan hujjatlari orasida xatni maqola tarkibiga kiritgan. Unda bunday soʻzlar yozilgan: «Birodarim Safo afandi Olloberganov.

Xivadan maʼlumingiz Husayn afandining qardoshi Abdulla afandi keldi. Mumkin boʻlsa, borgan ot bilan birga bugun oqshom bizda kelib qoʻnoqlanursiz. Sozingiz ham boʻlsa, koʻp yaxshi boʻlur edi. Sheʼrlaringizni ham yozub, agar Safar Xolmuhammedov kelsa, yana yaxshi boʻlur. Ilohi salomat boʻling. Hamza Niyoziy»³⁴.

Ushbu xat 1924-yil 15-iyun kuni yozilgan. Hamza Xivadan kelgan doʻstlari sharafiga yozilajak dasturxonni S.Mugʻanniyning musiqiy sanʼati bilan bezamoqchi boʻlgan. Shu oddiy hayotiy hodisaning oʻziyoq «Xorazm bulbuli»ning qanday yuksak sanʼat sohibi boʻlganligidan shahodat beradi. S.Mugʻanniyning fikriga koʻra, sanʼat bugungi kishilarga xizmat qilishi, bugungi voqealarga munosabat bildirishi bilan, ayniqsa, ahamiyatli. Shuning uchun ham u 20-30-yillar hayotida roʻy bergan voqealarni chetlab oʻtishni oʻziga ep koʻrmasdi. U kishilarni birlikka, mahalliychilik illatlaridan xalos boʻlishga chaqiruvchi sheʼrlar yozdi. Xorazm vohasi hayotida sodir boʻlayotgan har bir muhim voqeaga munosabat bildirishga urindi. Chunonchi, u xorijiy mamlakatlarga oʻqishga ketayotgan xorazmlik yoshlarga bagʻishlab, zamonaviy mavzuda yozilgan shunday sheʼrlari bilan Xorazm ahlining maʼnaviy hayoti va ruhiyatiga shoda-shoda nur sochishga, ularga zavq-shavq berishga alohida eʼtibor berdi.

Maqola muallifining keltirilishicha, Xorazmda Partav taxallusi bilan ijod qilgan shoirning Safo Mugʻanniy toʻgʻrisidagi xotiralarida bunday qiziqarli maʼlumot bor: «Mendan, — deb naqd kilgan edi u, — juda koʻp tanish-bilishlar: «Siz Safo sozchi bilan juda yaqin edingiz. Uning qaysi fazilatlarini sizga koʻproq maʼqul edi?» deb soʻraydilar. Ha, men Safo sozchi yoki xalqimiz orasida Safo Mugʻanniy nomi bilan mashhur, koʻp kuy-qoʻshiqlari elimizga manzur bulgan Safo Ollobergan oʻgli bilan Xorazm inqilobi yillarida tanishganman. U vaqtlarda men 16-17 yoshlarda edim. Kun vaqtim ustozim Muhammad Yusuf Bayoniy domlaning

³⁴ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013. 387-бет

uyularida kechardi. Safo sozchi Bayoniy domla bilan (garchand yosh jihatidan bir-birlaridan ancha tafovut qilsalar-da) juda qalin oshna edi. Bu oshnalik, mening anglashimcha, oddiy tanish-bilishlik bo‘lmay, balki ijodiy hamkorlik darajasiga ko‘tarilgan edi...

Safo sozchi zukko tabiat, hassos qalb, adolatparvar, yomonlik va riyokorlikni o‘lgudek yomon ko‘ruvchi, nozik badiiy ta’b sohibi, yaxshi bastakor, usta hofiz va notiq, sifatida xalq orasida katta obro‘ qozongandi... Safo sozchi u davrning muhim muammolariga har vaqt hozirjavoblik bilan «labbay» deb maydonga chiqardi. Ko‘pincha, zamon vokealariga bag‘ishlab to‘qigan qo‘shiqdarini darhol ustoz Bayoniy huzuriga kelib namoyish qilar, u kishining fikr-mulohazalarini so‘rar, o‘zaro muhokama qilishardi. Mana shunday majlislarda ular xizmatida bo‘lgan kaminalari ham Mug‘anniy ijodiy durdonalarining dastlabki tinglovchisi bo‘lishdek sharafiga muyassar edim. Oradan ko‘p o‘tmay, ustoz tufayli men ham Safo sozchi bilan yaxshigina oshno bo‘lib qoldim...»³⁵. “Xorazm bulbuli” maqolasida keltirilgan ushbu xotiralarni to‘liq keltirishimizdan maqsad shuki, olimning bu kabi ommaga hali mahlum bo‘lmagan, mahrifatparvar insonlar hayoti bilan bog‘liq hodisalarni ko‘rsatib berishi biz avlodlar uchun ahamiyatlidir. Chunki, ushbu haqiqatlar orqali biz o‘sha davr haqida, qolaversa e’tiborimiz qaratilgan shaxs haqida to‘la-to‘kis tasavvurga ega bo‘lamiz.

Safo Mug‘anniy Xorazm inqilobidan keyingi hayoti va faoliyati viloyat teatri bilan bog‘liq holda kechdi. U umrining oxiriga qadar shu teatrda sozanda, xofiz va bastakor bo‘lib ishladi. Xorazm teatri sahnasida qo‘yilgan spektakllarga yozilgan va ijro etilgan musiqaning xalqqa manzur bo‘lishida uning xizmatlari, ayniqsa, tahsinga sazovor.

«Inqilob quyoshi» gazetasining 1936-yil 10-noyabr sonida Safo Mug‘anniy iste’dodining yangi qirralari va ijodiy hayotining muhim jihatlari haqida bunday so‘zlar yozilgan: «U internatsional san’atkor bo‘lgan: turkmancha, tojikcha, qoraqalpoqcha, ozarboyjoncha,

³⁵ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013. 388-бет

tatarcha, ruscha, uyg'urcha, turkcha kuylardan bir qanchasini biladi. U «Sho'x yigitlar», «Budilnik», «Budyonniy» kuylarini juda yaxshi o'rganib olgan. U rubob, g'ijjak, doira, skripka, garmon, chala bilgan. Uning iste'dodining kuchliligi shundaki, Fayzulla Xo'jaev taqdim etgan bayonni chalishni ikki yarim oyda o'rgangan...»³⁶

Atoqli san'atkor to'g'risidagi bu hayajonli so'zlar uning ijodiy faoliyatiga 40 yil to'lishi munosabati bilan aytilgan edi.

O'sha yili Xorazm okrug ijroiya qo'mitasining qarori bilan Safo Mug'anniy ijroqo'mning faxriy yorlig'idan tashqari patefon, yon soat, kostyum va 1000 so'm pul bilan mukofotlangan. Akmal Ikromov nomidagi okrug teatri jamoasining iltimosiga asosan O'zbekistan SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasidan Safo Mug'anniyga Mehnat va san'at qahramoni unvonini berish so'ralgan. Afsuski, biz Xorazm okrug ijroqo'mining bu iltimosi Toshkentdagi tegishli idoralarga yetib kelganmi va qondirilganmi, degan savolga javob bera olmaymiz. Bu haqida birorta ma'lumot yo'q. Lekin shu narsa aniqki, Safo Mug'anniy Mehnat va san'at qahramoni degan yuksak unvon nashidasini surmoqchi bo'lgan kezlarda zamon dabdurustdan o'zgarib, alg'ov-dalg'ov boshlanib ketdi. Bu haqda maqolada shunday deyiladi: «1937-yil» degan ofat hech narsaning farqiga bormay, hammani yamlab yuta boshladi. 1937-yil 28-noyabrda Safo Mug'anniy ham «millatchi» va «aksilinqilobchi» sifatida qamoqqa olindi va 1938-yil 28-avgustda unga 10 yillik qamoq jazosi berildi. Xorazmning sevimli bulbuli qamoq jazosini o'tagan olis joylarda hayot bilan abadiy vidolashdi»³⁷.

Mustaqillik yillarida yurtboshimiz tashabbusi bilan boshlangan va milliy an'anaga aylanib borayotgan ishlardan biri qatag'on qurbonlari xotirasining e'zozlanishidir. Xalqimiz ushbu hayrli kunda o'zlari mustabid tuzum davrida badnom etilgan, tabarruk xoklari esa "qizil" saltanatning borsa-kelmas joylarida qolib ketgan aziz farzandlarini yod etib, ular xotirasi oldida bosh egadilar. Akademik

³⁶ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., «Мумтоз сўз». 2013. 389-бет

³⁷ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., «Мумтоз сўз». 2013. 390-бет

Naim Karimov ushbu vazifani sidqidildan bajarib, xalqimiz ma'rifati uchun fidoyilik qilgan insonlar xotirasini tiklab, millatimiz uchun juda katta ishlarni amalga oshirdilar. Biz bugun minglab vatandoshlarimizdan biri mashhur jurnalist Lutfulla Olimiy xotirasini tiklab, "Lutfulla Olimiyning achchiq taqdiri" maqolasini ham yozgan.

"Zulmat qo'ynidagi yulduzlar" turkumidagi "Uyushmaning birinchi raisi" maqolasida olim Rahmat Majidiy xotirasini ma'lum ma'noda tiklashga harakat qilgan.

"Uyushmaning birinchi raisi"³⁸ maqolasida yozilishicha, 1934-yilda O'zbekiston sovet yozuvchilari uyushmasi tashkil etilib, Rahmat Majidiy mazkur uyushmaga rais etib saylanadi. U rais bo'lgan ijodiy uyushmada adabiy jarayon, adabiy aloqalar bilan bog'liq ishlar avj olib ketadi. Rahmat Majidiy 15-avgustda Moskvada tantanali suratda ochilgan Butunittifoq sovet yozuvchilarining birinchi qurultoyiga o'zbek yozuvchilarining sardori bo'lib boradi va M.Gorkiyning mashhur ma'ruzasidan keyin o'zbek adabiyoti bo'yicha qo'shimcha ma'ruza bilan so'zga chiqadi. Bu Rahmat Majidiy hayotining yulduzli daqiqalari edi. Yana maqolada keltirilgan Rahmat Majidiyning xotiralarini keltiramiz: «Siyezd ketayotgan kunlarning birida, — deb eslagan edi Rahmat aka, — menga Aleksey Maksimovich bilan yaqindan suhbat qilish imkoniyati tug'ilib qoldi. Suhbatning dastlabki paytida menda hozir ifoda qilib berish mumkin bo'lmagan ajoyib bir tuyg'u paydo bo'ldi. Albatta, hayajon... Lekin gap mavzusi ish borasiga o'tishi bilan vaziyat o'zgarib, bir-biriga teng ikki kishi o'rtasidagi rasmana suhbatga aylandi. Bu vaziyatni Aleksey Maksimovich tug'dirgan edi. Men O'zbekistondagi adabiyotning ahvoli va o'sib kelayotgan yosh kadrlar haqida qisqacha gapirib berdim. U kishi mening so'zlarimni zo'r e'tiqod bilan tingladi, so'ng folklor materiallaridan foydalanish va xalq shoirlari o'rtasida borayotgan ishlar haqida savollar berdi. Men qisqacha javob qildim. Suhbat oxirida Gorkiy: «Xalq ijodi nihoyatda boy. Biz, yozuvchilar, xalq ijodidan foydalanamiz. Sizda, umuman, O'rta Osiyo xalqlarida

³⁸ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., "Мумтоз сўз". 2013. 423-бет

xalq og‘zaki ijodi boy. Shu sohaga, ayniqsa, e‘tibor berishingizni so‘rayman, dedi. So‘ng xalq shoirlari tomonidan ijod qilingan va uzoq vaqt o‘z kuchini saqlab kelayotgan asarlarni eslatib o‘tdi. Bu qisqa, lekin mazmundor suhbat bir umrga xotiramda qoldi»³⁹.

O‘sha vaqtda yozuvchilar uyushmasi oldida turgan muhim vazifalardan biri nasriy janrlarni rivojlantirish edi. Rahmat Majidiy shu maqsadda Abdulla Qodiriy, Sadridin Ayniy kabi tajribali adiblar bilan uchrashib, o‘zbek nasrini rivojlantirish uchun, avvalo, yozuvchilarga ijodiy sharoit yaratish, atoqli yozuvchilar bilan muloqotlar, seminarlar tashkil etish, eng yaxshi asarlar uchun tanlovlar e‘lon qilishga kirishdi. R.Majidiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlagan markazqo‘m Toshkent shahrining Injiqobod degan chekka joyidan yozuvchilar uchun bog‘ ajratib berdi.

«Bog‘ni obod qilish, — deya eslagan edi R.Majidiy, — uni yozuvchilar dam oladigan va ijodiy ish qiladigan ilhombaxsh go‘shaga aylantirish zarur edi. Men Toshkentning Samarqand Darvoza tomonida Abdulla akaning bog‘i borligini va uni yozuvchi o‘z qo‘li bilan mehr ko‘yib obod qilganini eshitgan edim. Shu esimga tushib, mazkur bog‘ni qanday obod qilish xususida Abdulla akadan maslahat so‘radim»⁴⁰.

Maqolada keltirilishicha, Abdulla Qodiriy uyushma raisiga maslahat beribgina qolmay, bog‘ni obod qila oladigan birdan-bir mirishkor bog‘bon va shoirtabiat inson Inog‘om otani ham topib berdi. Va bu bog‘ tez orada yozuvchilar o‘rtasida mashhur bo‘lib ketdi. R.Majidiyning tashabbusi bilan tashkil etilgan tanlov 1935-yil oktyabr oyining boshlarida yakunlanib, S.Ayniyning «Qullar» va A.Qahorning «Sarob» romanlariga ikkinchi, X.Shamsning «Huquq» romaniga uchinchi mukofot berildi, A.Qodiriyning «Obid ketmon» va Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanlari esa nashrga tavsiya etilgan ekan.

Ammo bu vaqtda Rahmat Majidiy nima sababdandir Moskvadagi Qizil professorlar institutiga o‘qishga yuborilgan edi. U ikki yarim yil davom etgan

³⁹ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013. 425-бет

⁴⁰ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013. 426-бет

o‘qishni tugatgach, 1940- yilga qadar Moskva shahri Frunze tumanidagi Molotov nomli fabrika qoshida kattalar uchun ochilgan maktabda avval o‘quv bo‘limi mudiri, keyin esa direktor bo‘lib ishlashga majbur bo‘ldi.

Rahmat Majidiy 1940-yili Moskvaga xizmat safari bilan borgan Usmon Yusupov bilan tasodifan uchrashib qolganligi, undan o‘z Vataniga qaytishiga yordam berishni so‘ragani, So‘ngra sarkotibning iltifoti bilan Toshkentga kelib, O‘zFAN qoshidagi Tarix, til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo‘lib xizmat qila boshladi.

Naim Karimovning maqolada ma’lumot berishicha, 1937-yilning dahshatli voqealari boshlanganida, Rahmat Majidiy Moskvada edi. Balki shu sababdandir qatag‘on qilichi uning yuragiga sanchilmay qoldi. Ammo 1941- yilda Qizil armiya shiddat bilan Moskva sari chekinganida, yuragiga g‘ulg‘ula tushadi. Sovet qurolining g‘alabasiga ishongan kishilar: «Bu vaqtinchalik chekinish», deganlarida, u bunday javob qaytaradi: «Nimalar deyapsiz, biz hamma narsani vaqtinchalik, deb kelmoqdamiz. Biz bunday gaplarni 23 yildan beri eshitib kelmoqdamiz, axir. Bunday holat keyinchalik ham davom etadi, xatto avlodlarimiz davrida ham... Aytishlaricha, oldingi zamonlarda sotqinlarni jazolashgan bo‘lishsada, ularning oilasiga tegishmagan. Hozir esa sho‘ro davlati ularning oilalariga ham tinchlik bermayapti...» Boshqa bir safar esa u kimning oldidadir bunday deydi: «Germaniya bilan urush bizning hukumatimizning provokatsiyasi bilan sodir bo‘ldi. Agar siz hozir menga ishonmasangiz, ertaga tarix shu gapni aytadi»⁴¹.

Rahmat Majidiy ana shunday haq gaplari uchun 1941- yil 18- dekabrda qamoqqa olindi. U 8 yilga kesilib, Toshkent taqsimot qamoqxonasiga qarashli 7 va 3 -mehnat-tuzatuv koloniyalarida azob-uqubat chekdi. 1949-yil 22-dekabrda ozodlikka chiqqan Rahmat Majidiy oilasi istiqomat qilgan Urganch tumani Chandirqiyot qishloq sovetiga qarashli kolxozga borib, suvchi, ketmonchi va tabelchi bo‘lib ishladi. Ammo bu ozodlik, o‘zi bashorat qilgandek, «vaqtinchalik» ozodlik edi.

⁴¹ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., “Мумтоз сўз”. 2013. 427-бет

1950-yil 22-iyunda Rahmat Majidiy ikkinchi marotaba qamoqqa olindi. Endi uni nafaqat 1941-yilda aytgan soʻzlar, balki Moskvada tahsil koʻrgan 1937-1938 yillarda Oʻzbekistondagi «xalq dushmanlari»ning fosh etilishiga yordam bermagani va goʻyo sovetlarga qarshi aksilinqilobiy tashkilotning aʼzosi boʻlgani uchun Krasnoyarsk oʻlkasiga nomaʼlum muddatga badargʻa qilindi.

Akademik Naim Karimovning keltirishicha, agar 1937-yilda Rahmat Majidiyning akasi Abdulla Majidov, qaynoʻasi Maryam Sultonmurodovaning ham qatagʻon etilishi tarixini ham yozsak, Majidovlar va Sultonmurodovlar oilasining 30-50-yillarda chekkan azob-uqubatlari fojiali bir doston boʻladi. Yaxshiyamki, zolimlar ham hayotdan oʻtadi. Yaxshiyamki, adolat quyoshi baʼzan-baʼzan jabrdiydalar tirik paytida ularga jilmayib qoʻyadi. Aks holda qanchadan-qancha Majidiylar bu dunyodan dod deb oʻtishgan boʻlard.

Rahmat Majidiy keyingi taqdiri haqida olim shunday yozadi: Stalin vafotidan keyin surgungohdan qaytgach, Toshkentda oilasi bilan yashab, Til va adabiyot institutida xizmat qildi. 1960-yilda Ogahiyning «Taʼviz ul-oshiqin» devonini katta soʻzboshi bilan nashr etdi. 1961-yilda «Ogahiy lirikasi» degan mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, 1963-yilda uni monografiya tarzida eʼlon qildi. Bundan tashqari, «Oʻzbek sheʼriyati antologiyasi»ning 5-jildini, 15 jildlik Alisher Navoiy «Asarlar»ining 1-4-jildlarini, shuningdek, rus tilidagi 10 jildlik Navoiy «Asarlar»ining 3 va 5-jildlarini nashrga tayyorlash va tahrir etishda faol qatnashdi. U uzlatda kechgan va behuda oʻtgan yillar evaziga ham ishlashga, oʻzidan yorqin iz qoldirishga intildi. Ammo kuch, sihat-salomatlik uni tark eta boshlagan edi. Yozuvchilar uyushmasining birinchi raisi 1983-yil dekabrda 77 yoshida vafot etdi. Bugun mustaqil Oʻzbekistonda qatagʻon qurbonlari xotirasining eʼzozlanishi nafaqat tarixiy adolat, balki oʻzbekona maʼnaviyat va axloq-odobning ham tiklanishiga kafolat boʻlib xizmat qilajak.

Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda paydo boʻlgan yangi milliy marosimlardan biri Xotira va qadrlash kunidir. Biz shu kuni nafaqat yorugʻ dunyoni tark etgan ota-

onalarimiz, qadrdonlarimiz, tanish-bilishlarimiz, balki xalqimizning mustabid tuzum davrida yashagan va hozirda Qur'on nurlariga intizor bo'lib yotgan farzandlari xotirasini ham yod etamiz. Namlari biz, avlodlar, uchun aziz bo'lgan bunday kishilar esa, oz emas. Shu o'rinda "Zulmat qo'ynidagi yulduzlar" bobida Naim Karimov yana bir latif inson, millat jonkuyari haqida maqola yozgan. Bu maqola "Dilbar insonlardan biri"⁴² deb nomlanib, Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik ishlari avj olgan yillarda ulug' o'zbek shoirining o'lmas asarlaridan biri - "Mahbub ul-qulub"ni kattagina so'zboshi bilan nashrga tayyorlagan shoir va olim Yunus Latifga bag'ishlangan edi. Ma'lumki, sovet davlati 20-yillardan boshlab boylarning mol-mulklarini musodara qilib, ularning o'zlarini siquvga ola boshlagan. "Yo'qsillar davlati"ning bu g'ayriinsoniy siyosati Latipovlar oilasini ham chetlab o'tmadi. Uning otasi mol-mulkini davlatga topshirganiga qaramay, doimiy tazyiq va ta'qib ostida yashadi. Shu bois Yunusxon ta'lim va tarbiya texnikumini tugatishi bilan ishlashga majbur bo'ldi. U 1938-yilgacha, ya'ni pedagogika institutida tahsil olgan davrida ham, O'rta va oliy o'quv yurtlarida til va adabiyot fanlaridan dars berib, otasini kundalik ro'zgor tashvishlaridan forig' qildi. Maqolada yoritilishicha, u xuddi shu davrda O'rta maktablar uchun zamonaviy darslik va majmualarning yetishmayotganini, mavjudlari esa yildan yilga o'sib borayotgan talabga javob bera olmayotganini ko'rib, o'zining adabiyot muallimi sifatidagi vazifalarini belgilab oldi. Keyinchalik u tanqidchi va adabiyotshunos sifatida muayyan tajriba hosil qilgach, Yusuf Sulton bilan birga O'rta maktablarning 10-sinfi uchun "Adabiyot" darsligi va "Hozirgi zamon adabiyoti" majmualarini nashrga tayyorladi. 1938-yili ilk bor bosmadan chiqqan bu kitoblar 1941-yilga qadar uch marta nashr etildi. Ma'lumki, shu davrda qalam tebrata boshlagan Yunus Latif singari yosh shoir va adabiyotshunoslar uchun adabiyot mo'jizalar olami edi. Ular shu mo'jizalar olamiga dahldor bo'lganlaridan o'zlarini baxtli hisoblab, adabiy jarayonda faol ishtirok etishga harakat qilganlar. Yunus Latif o'qituvchilik faoliyati bilangina kifoyalanib qolmay, shoir sifatida qalam tebratib, adabiy tanqid va adabiyotshunoslik ilmi bilan

⁴² Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., "Мумтоз сўз". 2013. 428-бет

ham faol shugʻullana boshladi. U 1925-yildan boshlab gazeta va jurnallarda "Bukungi sheʼriyatimiz va "Shuʼlalar qoʻynida" (Mirtemirning shu nomdagi toʻplami haqida), "Yangi adabiyot atrofida", "Ramaqijon", "Oydin" (Jaʼfar Jabborlining dramasi haqida), "Xandon lolalar" (A.Majidiyning asari haqida), "Yangi adabiy vazifalar haqida", "Bolalar adabiyoti haqida", "Zafar Diyorning ijodi haqida", "Ulugʻ yozuvchi va ustoz", "Otashin sanʼatkor" (M.Gorkiy xaqida), "Muqimiy haqida", "Navoiy aforizmlari", "Genrix Geyne", "Folklorda yoshlar", "Dohiy shoir, buyuk gumanist" (Navoiy haqida), "Navoiy", "Taras Grigorevich Shevchenko", "Mahbub ul-qulub" haqida, "V.V. Mayakovskiy", "Anna Karenina", "Baxshining yangi asari", "Xotiralardan" (Kosta Xetagurov hakida), "Tarixiy spravkalar" (Torobiy, Forobiy, Ibn Sino, Ulugʻbek, Bobur, Turdi, Gulxaniy, Nodira va Furqat haqida), "Uch shoir" (Munis, Ogaxiy, Avaz), "Alisher Navoiyga bagʻishlangan vistavka"), "Ayol yozuvchilarimiz" (Zebiniso, Nodira, Mahzuna, Nozikxon, Oydin, Zulfiya, Raʼno Uzoqova, Oftobxon Xolbotirova, Sayyora, Oqilovalar haqida), "Saddi Iskandariy" dostoni", "Xamsa" singari 50 dan ziyod adabiy-tanqidiy maqolalarni eʼlon qildi⁴³. Shu kichik roʻyxatning oʻziyoq, Yunus Latif bilim va qiziqish doirasi keng munaqqidgina emas, balki 30-yillar oʻzbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligining peshqadam namoyandalaridan biri boʻlganidan ham shahodat beradi. Naim Karimovning "Dilbar insonlardan biri" deb nomlangan maqolasi ana shunday maʼlumotlari bilan avlodlarni millatimiz mahrifatparvarlari faoliyati bilan kengroq tanishish imkonini beradi. Shuningdek, "Zulmat qoʻynidagi yulduzlar" turkumida "Asil Mansur qismati"⁴⁴ nomli maqola ham keltirilgan boʻlib, maqolada endigina 32 yoshga qadam qoʻygan, adabiyot va jurnalistika sohasidagi dastlabki ishlari bilan el ogʻziga tushgan, U 1927-yildan 1937-yilga qadar kechgan oʻn yillik davrda Namangan shahar sovetida masʼul kotib, oʻqituvchi, targʻibot va tashviqot boʻlimi mudiri, Andijon okrug ijroiya qoʻmitasida masʼul kotib, Norin tumanida targʻibot va tashviqot boʻlimi mudiri, "Margʻilon haqiqati" va "axta fronti"

⁴³ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., "Мумтоз сўз". 2013. 430-бет

⁴⁴ Наим Каримов. Адабиёт ва тарихий жараён.-Т., "Мумтоз сўз". 2013. 432-бет

(Andijon) gazetalarida mas'ul muharrir, Namangan shahar rahbar xodimlarni tayyorlash maktabida direktor lavozimlarida halol xizmat qilgani yozilgan. Nihoyat, 1936- yilning avgust oyida Namangan shahar soveti va shahar ijroiya qo'mitasining "Udarnik" gazetasiga mas'ul muharrir etib tayinlanadi.

Asil Mansurov qisqa muddatda tahririyatdagi mehnat intizomi va ish uslubini keskin o'zgartirib, gazetani Namangan shahri hamda viloyatidagi ijtimoiy va ma'naviy hayotning yorqin ko'zgusiga aylantiradi. Taniqli shoir va jurnalistlardan iborat mualliflar guruhini tuzib, Namanganda kechayotgan jutkiy hayot va mehnat jarayonini gazeta sahifalarida aks ettirishga zavq-shavq bilan kirishadi. O'zi ham "Asil Mansur" taxallusi ostida shu davr ruhi bilan to'yingan she'rlar yozgani haqidagi fikrlar bayon etilgan. Lekin Asil Mansur ham 1937-yilning begunoh qurbonlaridan biri bo'lgani, agar bu inson 37-yil tegirmonidan omon qolganida, balki yaxshigina shoir yoki jurnalist bo'lib ulg'aygan, o'z asarlari bilan o'zbek adabiyoti va jurnalistikasi tarixida ma'lum iz qoldirishi ham mumkinligi haqida Naim Karimov "Asil Mansur qismati" maqolasida kuyinib yozgan. Naim Karimovning ushbu kitobdagi ayrim maqolalarini o'qiganda ularning mavzusi va qaxramonlariga nisbatan shu so'zlarni ishlatishni ravo ko'ramiz: Millat o'z qahramonlarini unutmaydi.

Xulosa

Tarixiy jarayon adabiy hodisaga aylanarkan, ikki yoʻnalishda oʻz umrini davom ettiradi. Ulardan birinchisi tarix haqiqatini badiiy toʻqimaga aylantirib, adabiy asar orqali el xotirasiga muhrlashdir. Tarixiy xotirani adabiy jarayonga aylanishidagi badiiy boʻlmagan usul shundaki, oʻsha davr fojeasi ham, shavkati ham zakiy adabiyotshunoslar tomonidan yozilgan maqola va talqinlar orqali his qilamiz. Biroq adabiy maqolada badiiy asar tahlili barobarida tarixiy jarayonni kuzatish, uning ogʻriqli nuqtalarini ijodkor shaxs qismati orqali anglash va anglatish adabiyot ilmi uchun muhim jihat hisoblanadi. Bu jarayonda romanga xos epik koʻlam va miqyosli tafakkur olimga ham zarur boʻladiki, Naim Karimovning tarix va adabiy jarayonga bagʻishlangan maqolalari xalq hayotidagi mana shunday ogʻir, zalvorli maʼnaviy yukni oʻz zimmasiga oladi. Naim Karimov maqolalari nafaqat tahliliy quvvati bilan, balki axboriy yangiligi va zamonaviy talqini, jugʻrofiy koʻlami bilan ham romanlar zimmasidagi maʼnaviy yukni koʻtara oladigan asarlar ekanini kuzatamiz.

Adabiyot tarixiy jarayonni oʻzida aks etar ekan, har ikki holda ham tarix haqiqatiga adabiy asar prizmasidan qaraydi, unda tarixchilar nigohi tushmagan yoki ikkinchi darajali fakt hisoblagan xodisalar birinchi planga chikishi, unga urgʻu berilishi, hatto qayta ishlanishi ham mumkin. Bu ijodiy jarayonda adabiyotchi uchun muhimi vokea yoki fakt emas, balki Inson va uning tarixiy evrilishlar davrida oʻzgarayotgan kiyofasidir. Bu jihat badiiy adabiyot uchun muhim sanalgani kabi adabiyotshunos olim ham adabiy asarga tortilgan mana shu jihatlarga eʼtibor qaratadi, tarix bagʻridan vokea emas, shaxs qidiradi.

Naim Karimov yaqin davrlar adabiy tarix tadqiqotchisi sifatida tanilgan boʻlsa ham olimning olis tarix qatida yotgan adabiy haqiqatlarni yuzaga chikarish maqsadida amalga oshirgan ixcham tadqiqotlari alohida eʼtiborli. Nafaqat tarixiy

silsila, xronologiya nuqtai nazaridan, balki ulug‘ o‘tmishdoshlarimiz qismatiga adabiy-ilmiy munosabat nuqtai nazaridan ham ayni holat muhimdir. Ulug‘ alloma Beruniyning badiiyot olamiga munosabati, bizga noma‘lum adabiy manbalarni ma‘lum qilishdagi dalolati Naim Karimovga qadar ham olimlarimizni qiziqtirib kelgan. Beruniyni yunon adabiyotining bilimdoni sifatida tanitish orqali Naim Karimov "buyuk vatandoshimizning ilmiy merosini qiyosiy metod asosida o‘rganish, uning Arastu, Aflotun, Nomer singari buyuklar bilan bir safda turishini asoslash"ni o‘zining vazifasi deb bilgan. Ushbu maqola bir jihatdan, Naim Karimovning yunon va boshqa qadimgi adabiyotlarni yaxshi bilishini anglatrsa, ikkinchi jihatdan, Ulug‘ alloma merosiga yuksak madaniyat va ilmiy vorislik nuqtai nazaridan yondoshganining amaliy isbotidir.

Hazrat Alisher Navoiy ijodining jahon, ayniqsa, turkiy adabiyotlarga ta’siri masalasi XX asr adabiyotshunosligining muhim qirrasini sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan Navoiy ijodining Fuzuliy, Nisoriy hamda Maxtumduliy asarlariga ko‘rsatgan samarali ta’siri asosida yirik tadqiqotlar yaratilgan. Naim Karimov esa mutaxassis olim sifatida ayni adabiy ta’sir va hamkorlikning tayanch nuqtalarini aniqlab, unga maxsus maqola bag‘ishlaydi. Tabiiyki, N.Karimov maqolasidan keyin Navoiy va usmonli adabiyoti, xususan, Ahmad Posho ijodiga o‘zbek olimlarining ham qiziqishi ortdi va bu ilmiy ma’lumotning amaliy natijasi o‘laroq Ahmad Posho devoni o‘zbek tilida chop etildi va Alisher Navoiy ijodini ushbu shoir merosi bilan qiyoslagan tadqiqoti yaratildi.

Naim Karimovning adabiyot va tarixiy jarayon masalalariga bag‘ishlangan maqolalari orasida Toshkentda yashab ijod qilgan yoki Shoshiy (Chochiy) taxallusi bilan adabiy asarlar yaratgan ijodkorlar alohida o‘rin tutadi. Har bir shahar ziyolisi o‘zining buyuk o‘tmishdoshlari bilan faxrlanishi barobarida ulug‘ zotlardan qolgan ma’naviy bisotni o‘rganishga, uning talqinini zamondoshlari bilan baham ko‘rishga harakat kiladi. Shu jihatdan "Bobokalon shoirlar" maqolasida Abu Muhammad Matroniy, Abu Omir ibn Axmad Shoshiy, Badri Chochiy haqida ma’lumot berilsa,

"Shoshiylar avlodi" maqolasida esa Akmal Toshkandiy, Dilafkor, Iffat, Shoir kabi ilm ahliga deyarli noma'lum shoirlar haqida manbalarda qayd qilinganlarni jamlab, kitobxonlarga yetkazadi.

"Yorkent asiri" (Furqat) haqidagi maqolasida furqatshunoslar e'tiboriga shoirning "Kajkul" to'plamini eslatish barobarida turkshunos olim E.Tenishevning 1995-yildagi kundaliklari asosida o'zbek furqatshunosligini yangi ilmiy xabarlar bilan to'ldiradi.

"Charog'bonlar" turkumi turkiy dunyoning I.Gasprinskiy, S.Aziziy, M.Behbudiy, A.Shakuriy, M.Abdurashidxonov, H.Jovid, Bakir Cho'ponzoda kabi yulduzlari ijodiga bag'ishlangan. I.Gasprinskiy haqidagi maqola-tadqiqot faqat ulug' muallimning hayoti va faoliyatini o'zbek kitobxonlariga tanishtirish bilan cheklanmaydi, balki I.Gaspirali va Turkiston mavzusining ildizlariga borib taqaladi, qrim-tatar muharriri nega Turkistonda mashhur bo'lib ketdi, uning uch bora tashrifining sabablari nimada edi? kabi savollariga javob beradi. Turkiston mustamlakachiligi bilan Gasprinskiyni birlashtirgan umumiy maqsad, erk istagi ekanini, shuning uchun ham o'lkada erk tuyg'ularini uyg'otgan ustozdan erkinlikka chiqish amallarini kutib, "Tarjimon"ga ilhak bo'lganlarini anglatib beradi. N.Karimov hujjat bilan ishlashni yoqtiradi, uning xulosalari ham ehtiroslar ta'siri emas, balki mana shu hujjatli asosning natijasi o'laroq ko'rinadi. Ayniqsa, Behbudiy va Munavvar qori, Shakuriy va S.Majidov haqidagi maqolalar nafaqat hujjatliligi, balki taraqqiyparvar olimlarimiz ijod va faoliyatini xalqimizga tanitib ulgurgan bu buyuk allomalar haqidagi qarashlarimizni ham to'ldira olishi bilan ahamiyatlidir. Ayni shu turkumda o'zbek milliy uyg'onishi uchun xizmat qilgan rus ziyolilari, rus-tuzem maktablarini tashkil kilgan S.Gramenitskiy va turkiyot professori Ye.Polivanov haqida nozik kuzatishlar bor: "Bunday maktablarni ochishdan maqsad Chor hokimiyatiga sodiq kishilarni tarbiyalash bo'lgan. Biroq, shunga qaramay, bu maktabda tahsil ko'rgan turkistonlik aksar yoshlar (Cho'lpon singari) keyinchalik Chor va sovet hokimiyatlarining mustamlakachilik siyosati mohiyatini tushunib,

o‘zlari mansub bo‘lgan xalqni uyg‘otish yo‘lida faoliyat olib borganlar. Rus-tuzem maktablari uchun nashr etilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari, birinchi navbatda, S.M.Gramenitskiyning asarlari, XX asr boshlarida yangi usuldagi milliy maktablar uchun pedagogik risolalarning yaratilishida andoza vazifasini o‘tadi. Dastlabki o‘zbek pedagoglari Saidrasul Aziziy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza va boshqalar o‘z pedagogik risolalarini yaratishda S.M.Gramenitskiyning mazkur kitoblaridan samarali foydalandilar. Uning «Birinchi o‘qish kitobi» esa o‘zbek milliy alifbe kitoblarining paydo bo‘lishiga katta ta’sir ko‘rsatdi”.

Naim Karimov adabiyot olami, ayniqsa, yozuvchi hayoti va ijodidagi ko‘z ilg‘amas oqimlarga serob badiiy estetik yo‘nalishlarni ham chuqur idrok etib, nihoyatda nozikta’blik bilan tahlil qiladi. Naim Karimovning adabiy-tanqidiy qarashlarida so‘z san’atiga chuqur ehtirom, samimiyat nurlanib turadi.

U adabiy jarayon bilan birga qadam tashlaydi, har bir asarga alohida e’tibor bilan qaraydi, bunda xolislik, eng muhimi, samimiylik, to‘g‘riso‘zlik, san’atkor ijodiga yuksak ehtirom bilan qarash olim yodining konsepsiyasini tashkil qiladi. Shu bois Naim Karimov deganda ko‘z oldimizda hassos, so‘z san’ati adabiyotni chin dildan sevgan, qayg‘uruvchi, xolis ilmiy fikrlovchi munaqqid, iste’dodli olim namoyon bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotshunosligining yetakchi vakillaridan biriga aylangan Naim Karimov obrazli fikrlash, tahlil etilayotgan badiiy asar shoir hayot yo‘lini tarixiy-ma’naviy yo‘nalishda qiziqarli va xolislik bilan hikoya qilishdir. U tadqiq etayotgan badiiy asarni falsafiy yoritishda dalillashga alohida ahamiyat berdi. Munaqqidlar, ayniqsa, Cho‘lpon, Hamid Olimjon, Oybek haqidagi yirik tadqiqotlarda bu fazilatlar uyg‘unlashib ketadi

Shuningdek, akademik Naim Karimovning “Adabiyot va tarixiy jarayon” kitobi tarixni anglashda, tarixiy xotirani adabiy qismatga aylanishida o‘ziga xos ma’naviy qadam bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ижтимоий-сиёсий адабиётлар

- 1.1. Каримов И. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 381 б.
- 1.2. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 40 б.
- 1.3. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.4. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир [Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси] // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017. – 4 авг.
- 1.5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
- 1.6. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 489 б.

II. Ilmiy-nazariy va badiiy adabiyotlar

- 2.1. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Тошкент. Ўзбекистон. 2008
- 2.2. Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980.
- 2.3. Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1955.
- 2.4. Каримов Н. Адабиёт ва тарихий жараён. “Мумтоз сўз”. 2013.
- 2.5. Борев Ю.Эстетика. – М.: Политиздат, 1988.
- 2.6. Вишневский В. Статьи, дневники, письма. – М.: Искусство, 1961.
- 2.7. Выготский Л.С. Психология искусства. – М.: Педагогика, 1987.
- 2.8. Гулыга А.В. Принципы эстетики. – М.: Политиздат, 1987.

- 2.9. Каримов Н. Ҳамид Олимжон. Тошкент: Ёш гвардия, 1979.
- 2.10 Каримов Н. Ойбек. Тошкент: Ёшг вардия, 1985.
- 2.11 Каримов Н. Чўлпон. Тошкент: Фан, 1991
- 2.12 Каримов Н. Усмон Носир. Тошкент: Шарқ, 1993.
- 2.13 Каримов Н. Ойбек гулшанидан қолган ғунчалар.(Ойбекнинг тугалланмаган асарлари тўғрисида. Тошкент: Фан, 1985
- 2.14 Каримов Н. Ойбек гулшанидан шабадалар. Тошкент: “Маънавият”, 2015
- 2.15 Каримов Н. Истиклолни уйғотган шоир. Тошкент: “Маънавият”, 2006
- 2.16 Каримов Н. Чўлпон : Маърифий раман. Тошкент: Шарқ, 2004.
- 2.17 Каримов Н. Ойбек ва Зарифа. Тошкент: Ўзбекистон, 1990.
- 2.18 Каримов Н. Ҳамид Олимжон лирикаси. Тасаввур ва тасвир. (фан ҳақида суҳбатлар) Тошкент: Ўзбекистон, 1989
- 2.19 Каримов Н. Усмон Носирнинг сўнги кунлари (ҳаётий лавҳалар, хужжатлар). Истиклол фидоийлари. Тошкент: Шарқ, 1994.
- 2.20 Миллатни уйғотган адиб. Методик-библиографик кўлланма. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2008
- 2.21. Мирзаев И. Умид ва ишонч // Камалак. Адабий-танқидий тўплам. – Тошкент, 1990.
- 2.22. Ортега-и- Гассет. Эстетика. Философия култур. – Москва: Искусство, 1991.
- 2.23. Петровский Ф.А. Аристотелнинг поэтик санъат ҳақидаги асари (Аристотель. Поэтика). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980.
- 2.24. Саидносирова З. Ойбегим менинг. (Хотиралар). Мухаррир Каримов Н. –Т: Шарқ, 1994
- 2.25. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
- 2.26. Чернишевский Н.Г. Танланган адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1956.
- 2.27. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005.

- 2.28. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005.
- 2.29. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

III Matbuot materiallari

- 3.1. Каримов Н. Қасамёд.(Фитрат ҳақида). //Таффақкур. -2016. -№2.
- 3.2. Каримов Н. Шекспир ва Чўлпон. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - 1998. -17 апрел.
- 3.3. Каримов Н. Илм ила вайроналар ҳам бўстон. (Мискин таваллудининг 125 йиллиги) Ўзбекистон адабиёти ва санъати. // -2006. -14-июл.
- 3.4. Каримов Н. Ўзбекистонда адабий ҳаракатлар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -1995. -20 январ.
- 3.5. Каримов Н. Фитратнинг синглиси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - 2010. -29 январ.
- 3.6. Каримов Н. Фитратнинг шеърий мероси. // Халқ сўзи. -1996.-24 декабр.
- 3.7. Каримов Н. Ҳамза ва мухторият. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - 1995. -11 август.
- 3.8. Каримов Н. Унитилган саҳифа. (Чўлпоннинг 100 йиллик таваллудига). // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -1997. -10 октабр.
- 3.9. Каримов Н. Нажот элчиси (Маҳмудхўжа Бехбудий ҳақида). // Ўзбекистон адабиёти ва санъати.-2000. -14 январ.
- 3.10. Каримов Н. Олимнинг эъзозли номи. (Абдурашид Абдуғофуров ҳақида). // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -2007. -1 январ.
- 3.11. Каримов Н. Бобокалон шоирлар. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - 2009. -28 август.
- 3.12. Каримов Н. Очилмоқ истайлар лола, сунбуллар.(Чўлпон ҳақида) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -1997. -28 ноябр.

- 3.13. Каримов Н. Очилмоқ истайларлола, сунбуллар. (Чўлпон ҳақида) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -1997. -28 ноябр.
- 3.14. Каримов Н. Некбинруҳ, ҳаётсеварғоя. (Усмон Азим ҳақида) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -2010. -19 ноябр.
- 3.15. Каримов Н. Уюшманинг биринчи раиси. (Раҳмат Мажидий ҳақида) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -2006. -25 август.
- 3.16. Каримов Н. Адабиёт илмининг султони. (Иззат Султон ҳақида) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -2007. -27 июл.
- 3.17. Каримов Н. Олимнинг ишқий номалари. (Иззат Султон ҳақида) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -2006. -26 май.
- 3.18. Каримов Н. Ижоднинг оидин кечалари. (Мақсуд Қориев ҳақида) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2006. 28 июл.
- 3.19. Каримов Н. Серқирра ижодкор. (Сидқий Хондайлиқий 125 йиллигига) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -2009. -7 август.
- 3.20. Каримов Н. Ойбек: Тош экан бу бошим... (Ўзбек адабиёти туркумидан) // Фан ва турмуш. -1992. -№ 9-10
- 3.21. Каримов Н. Ойбек учун гуллар. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - 2009. -3 июл.
- 3.22. Каримов Н. “Яшамоқ – интилиш, юксалиш, чакнаш”. (Ойбек ҳақида) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. - 2000. -7 январ.
- 3.23. Каримов Н. Бугунги кунлар сурури. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -2004. -1 сентябр.
- 3.24. Каримов Н. Адабиётимиз тарихида ёрқин сиймо. (Фитрат ҳақида) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -1996. -7 январ.
- 3.25. Каримов Н. Мавлоно Фитрат. // Фан ва турмуш. -1996.-№7
- 3.26. Каримов Н. Чўлпон гулшанидан шабадалар. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -1996. -26 июн.
- 3.27. Каримов Н. Ҳабибийнинг ҳабиби ёки унитилган олим. // Ўзбекистон

адабиёти ва санъати. -2006. -6 январ.

3.28. Каримов Н. Чўлпоннинг тиниқ олами. (Адабиётшунос Баҳодир Каримга жавоб) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -2009. -26 июн.

3.29. Каримов Б Тиниқлашаётган Чўлпоншунослик. (Адабиётшунос Наим Каримовга очиқ хат). // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -2009. -10 апрел.

3.30. Каримов Н. Сўнги жадид. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати. -2000 -24 март.

3.31. Назаров Б. Нозиктаб адабиётшунос. (Наим Каримов ҳақида). // Ўзбек тили ва адабиёти. -2002.-№ 6

3.32. Наим Каримов таржимаи ҳоли // Ёшлик . -2014 -№6.

III. Internet saytlari

4.1. [http: // ziyo.net.uz](http://ziyo.net.uz).